



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI  
PEDAGOGIKA FAKULTETI**

**CHIZMA GEOMETRIYA VA CHIZMACHILIK  
KAFEDRASI**

*Qo'lyozma huquqida UDK 515.2*

**Safarov G'ofir Hakimovich**

**ELEKTRON QO'LLANMA YARATISH USLUBIYOTI  
(arxitektura-qurilish chizmachiligi fani misolida)**

5A140702- Muhandislik grafikasi ta'lif yo'nalishi magistr akademik  
darajasini olish uchun taqdim qilingan

**D I S S E R T A T S I Y A**

Ilmiy rahbar:

t.f.n. dots. M.M.Badiyev

**Buxoro – 2012 y.****MUNDARIJA**

Kirish .....	5-11
--------------	------

**I BOB. ARXITEKTURA QURILISH CHIZMACHILIGIDA BINONING  
PLANI VA FASADI**

1.1. Arxitektura qurilish chizmachiliginu takomillasha borishining qisqacha tarixi .....	12-24
1.2. Bino plani.....	25-33
1.3. Bino fasadi .....	34-39
1.4. Grafik dasturlarda arxitektura qurilish chizmachiligi chizmalarini bajarish .....	40-47

**II BOB. ELEKTRON O'QUV QO'LLANMA TAYYORLASHGA  
QO'YILGAN UMUMIY TALABLAR**

2.1. Elektron o'quv qo'llanma va darsliklar yaratilishi tarixi va uning inson faoliyatidagi ahamiyati.....	48-59
2.2. Elektron o'quv qo'llanma va darslik tayyorlash va unga qo'yiladigan talablar.....	60-68

**III BOB. ELEKTRON O'QUV QO'LLANMA TAYYORLASHDA  
GRAFIK DASTURLARDAN FOYDALANISH TEXNOLOGIYASI**

3.1. Elektron qo'llanmalar yaratish texnologiyasi, uning programma va texnik vositalari.....	69-81
3.2. "Macromedia Flash MX" va "Kool Moves" – dasturlari animatsiyalar tayyorlash bosqichlari.....	82-91
3.3. Adobe " Photoshop " grafika muharririda ishlash.....	92-105
<b>XULOSA.....</b>	<b>106-107</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....</b>	<b>108-109</b>

## SO'Z BOSHI

O'zbekiston mustaqillikni qo'lga kiritgan dastlabki kunlardanoq erkin demokratik davlat barpo etish, xalqning ma'naviy boy va munosib hayotini ta'minlashdek ezgu maqsadni amalga oshirishga kirishdi. Biz tanlagan rivojlanish yo'li jahon tajribalarini, shuningdek asrlarga tengdosh milliy an'analar, urfodatlarni, an'anaviy turmush tarzini har tomonlama hisobga olib, davlat va jamiyatni yangilash hamda taraqqiy ettirishga yo'naltirilgan.

Mustaqillikning 20 yili mobaynida mamlakatda ijtimoiy, madaniy va xalqaro hayotning deyarli barcha tomonlariga taalluqli ijobiy o'zgarishlar yuz berdi. O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga qo'shilishi bobida faol va samarali qadamlar qo'yildiki, bu ko'p jihatdan mamlakat fuqarolariga axborotdan erkin foydalanish imkoniyatlarini yaratish darajasi bilan bog'liqdir.

Axborot va kommunikastiya texnologiyalari shiddat bilan rivojlanayotgan asrda axborot siyosati madaniy siyosatning bir bo'lagi hisoblanadi. Aholining axborot-resurslaridan to'liq foydalanishini ta'minlash, davlatimizning jahon axborot oqimi bilan to'laqonli hamkorligi o'tgan asrning 80-yillari oxiri 90-yillari boshlarida axborot va telekommunikastiya texnologiyalarini keng joriy etish masalalari respublika darajasida hal qilina boshlangan davrdan rivojlna bordi. Bu jarayonga nafaqat ilmiy texnika axboroti instituti, balki respublikaning global axborot tizimiga kirishining dolzarbligini tushunib etgan kutubxonalar, oliy ta'lim muassasalari ham kirishdilar. Buning natijasi qabul qilingan quyidagi qonun va me'yoriy hujjatlar bo'ldi: "Axborotlashtirish to'g'risida"gi (1993), "Elektron hisoblash mashinalari va ma'lumotlar bazasi uchun dasturlarni huquqiy himoyalash to'g'risida"gi (1994) qonunlar va "O'zbekiston Respublikasi axborotlashtirish konsepsiysi" (1994). Keyinroq milliy axborotlashtirish tizimini shakllantirish, axborotdan foydalanish bo'yicha o'sib borayotgan talablarni

qondirish maqsadida quyidagi qonun va hujjatlar ishlab chiqilib qabul qilindi: “Elektron tijorat to’g’risida” (2003), “Elektron hujjat aylanishi to’g’risida” (2003), “Elektron raqamli yozuvlar to’g’risida”gi (2004) qonunlar, “Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot kommunikastiya texnologiyalarini joriy etish to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni va “Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot kommunikastiya texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori (2002).

Butun axborot imkoniyatlari asosan kutubxonalarda yig’ilgan bo’lib, foydalanuvchilar shu erda kutubxonada yig’ilgan yoki uzoqdagi axborotdan foydalanishi mumkin. Axborot va Internet texnologiyalarining rivojlanishi, kutubxonalarga o’z resurslarini tartibga keltirish, elektron ma’lumotlar bazasini yaratish, axborot resurslarini kooperastiyalash, ularga erkin kirib, foydalanishni ta’minlash imkonini berdi.

## KIRISH

O'zbekiston Respublikasi mustaqillik sharofati bilan o'z taraqqiyotining yangi davriga kirdi. Xalqimiz o'zining boy tarixiy, madaniy va ma'naviy merosiga ega bo'ldi. Ming-ming yillik me'morchilik va shaharsozlik tariximizni, hattoki borib ko'rish ta'qiqlangan arxitekturaviy yodgorliklarni nafaqat ziyorat qilishga, balki ularni o'rganishga va restavratsiya qilishga ham keng imkoniyatlar yaratildi. Vatanimizda qadim zamonlardan boshlab yaratilgan nodir me'moriy obidalarni, shaharsozlikning yaratilish tarixini, qurilish usullari va qoidalarini talabalarga xolisona o'rgatish zamoni keldi.

**Mavzuning dolzarbliji.** O'zbekiston Respublikasining “Ta'lif to'g'risida”gi va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida”gi Qonunlarida, shuningdek umumiy o'rta ta'limga tegishli o'quv-me'yoriy hujjatlarda barkamol shaxsni shakllantirish hamda bu fazilatlarni belgilovchi eng muhim mezonlar – talabalar tomonidan zaruriy bilim, ko'nikma va malakalarning o'zlashtirilishi hamda ularning bilim sifatiga alohida e'tibor qaratilgan.

Milliy istiqlol mamlakatimizning nafaqat siyosiy-iqtisodiy poydevorini mustahkamlashga, balki uning intellektual kuch-qudratini belgilovchi ilm-fan taraqqiyotiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Zero, yurtboshimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek, «o'z aql-zakovat, ilmiy-texnikaviy salohiyatimizni rivojlantirish mamlakatimizni barqaror taraqqiy ettirish omilidir»<sup>1</sup>.

Haqiqatdan ham, barkamol shaxsning muhim sifatlari bo'lган mustaqil va ijodiy fikrlash, mustaqil ishlay olish qobiliyatini tarbiyalash umumiy o'rta ta'lif maktabning muhim vazifalaridan hisoblanadi. Bu borada talabalarning bilish faoliyatini rivojlantirish, dars mashg'ulotlarini samarali tashkil qilish alohida

<sup>1</sup> Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. -Toshkent, 1997. – B. 31-61.

<sup>2</sup> Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. – Toshkent: «O'zbekiston», 1998. –B. 631.

ahamiyat kasb etadi. Jumladan, umumiy o’rta ta’lim mактабning chizmachilik ta’limi jarayoni talabalarni hayotga, kasb-hunarga tayyorlashda, ularning rastionalizatorlik va ixtirochilik faoliyatini shakllantirishda muhim o’ringa ega.

Maktablarda chizmachilik fanini 34 soat (9-sinflarda) o’qitish nazarda tutilgan. Chizmachilik fanidan tuzilgan yangi o’quv dasturiga mazmun jihatdan birmuncha o’zgartirish kiritildi. Xususan, knematic sxemalar, qurilish chizmalari, loyihalash elementlari va kompyuter grafik shakllarni yasash kabi mavzular o’quv dasturidan joy olgan. Bu mavzularga asosan o’quv rejda ikki-uch soatdan o’tilishi rejallashtirilgan.

Biroq muhandislik ta’lim tizimini yanada rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlardan to’liq foydalanilmoqda deb bo’lmaydi. Jumladan, ilg’or pedagogik texnologiyalarni muhandislik ta’lim jarayoniga olib kirish, o’qitishni zamonaviy fan-texnika taraqqiyoti talablariga muvofiq takomillashtirish kabi keng qamrovli masalalar haligacha o’z echimini kutmoqda. Kasb-hunar kollejlari va oliy o’quv yurtlarida ham arxitektura qurilish chizmachiligini o’qitish jarayonida talabalarning bilish faoliyati, o’zlashtirishiga doir ko’nikma va malakani tarkib toptirish muammolari ham hali yetarlicha o’rganilmagan.

Tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, birinchidan, texnika taraqqiyoti sharoitida insonning predmet va ob’yektlarning real xususiyatiga ko’ra abstrakstiyalashning turli darajadagi grafik modellari bilan ish ko’rish qobiliyatiga bo’lgan talablarning oshib borayotgani bo’lsa, ikkinchidan zamonaviy grafik chizish dasturlarlar bilan bog’liq bo’lgan faoliyatini rivojlantirish muammosi nazariy jihatdan to’la o’z echimini topganicha yo’q.

Bugungi kunda respublikamizda ilm-fanning jadal taraqqiy qilishi va bilimlarning tez yangilanishi, sifatli va samarali texnika, texnologiyalarning kirib kelishi, zamonaviy axborot-kommunikatsiya tizimining barcha sohalarida, jumladan ta’lim jarayoniga tatbiq etilishi xususan o’quv-darsliklarining yangi avlodini yaratish hamda ulardan samarali foydalanishni taqozo etmoqda. Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish davr talabidir. O’zbekiston Respublikasi

Prezidentining “Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish” to’g’risidagi Farmoni va O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish” chora-tadbirlari to’g’risida qarorlari fikrimiz dalilidir.

Jumladan, hozirgi kunda zamonaviy darsga juda katta talablar qo’yilmoqda. Bu talablardan biri dars jarayonida informatsion texnologiya va elektron qo’llanmalardan o’z o’rnida samarali va oqilona foydalanishdir. Ammo oliy ta’lim bakalavriyat bosqichida arxitektura qurilish chizmachiligi fanida informatsion texnologiya va elektron qo’llanmalardan foydalanishning amaliy va nazariy asoslari haligacha to’liq o’rganilmagan. Bu ham tanlangan mavzuning dolzarb ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi.

**Muammoning o’rganilganlik darjasи.** Arxitektura qurilish chizmachiligi fanining fundamental asoslariga M.S.Bulatov, B.N.Zatsipkin, N.F.Gulyanitskiy, V.Kulikov, L.Bergamoltsev, T.F.Kudratov, K.Babihevskiy, G.A.Pugavenchoga, I.L.Rempel, V.A.Shishkin, M.Penson, F.Tursunov, P.Zaxidov, M.M.Voxidov, Sh.R.Mirzayev, M.Badiyev, I.M.Azimov, R.D.Teshaboev kabi olimlar salmoqli hissa qo’shgan.

Biroq yosh muhandis pedagoglarni tayyorlash bilan bog’liq bir qator masala borki, ular nazariy jihatdan yetarlicha tadqiq etilmagan.

Bular: a) grafik tayyorgarlik darjasи, pedagog kadrlarning quruvchilik malakalarini rivojlantirish, ularning tahlili va mohiyati; b) arxitektura qurilish chizmachiligi fanida har xil turdagи grafik tasvirlar bajarish jarayonida talabalarning maqbul ish usullarini aniqlash va bu usullarni turli masala echish vositasida tarkib toptirish; v) arxitektura qurilish chizmachiligini o’qitish jarayonida kompyuterdan foydalanish imkoniyatini aniqlash va uni tatbiq etish muammolari.

Talabalar bilish faoliyatini shakllantirish va rivojlantirish muammosining nazariy asos va yo’nalishlari quyidagi olimlarning izlanishida o’z ifodasini topgan. Bu muammo xususida uch xil nuqtai nazar mavjud.

Bir qator olimlar (M.M.Voxidov, Sh.R.Mirzayev, A.Abduqodirov, M.Lutfullayev, N.Muslimov, A.G'.Hayitov, F.M.Qosimov, B.Mo'minov) muammoni hal etishda ijodiy mashq, amal va topshiriqlar bajarib, ta'lim jarayonini ma'lum darajada jadallashtirishni nazarda tutadi. Ular o'z izlanishlarida elektron adabiyotlarining yangi avlodini yaratish usullari va bu yo'nalishda shaxsning sifatiga xos xususiyat mustaqillik, tashabbuskorlik, ijodiy faollik va bilimlarni mustahkam egallash kabi xislatlarni tarkib toptirishga e'tibor berishgan.

A.Hayitovning tadqiqoti ta'lim jarayonini kompyuterlashtirish muammolariga bag'ishlangan bo'lib, unda umumiyo'rta ta'lim mакtabda informatika va hisoblash texnikasi asoslari fanini PDV (pedagogik dasturlar vositasi)ga tayanib tashkil etishning pedagogik-metodik asoslari tadqiq qilingan. Shuningdek, elektron qo'llanma va o'quv qo'llanmalarni yaratish texnologiyasi muammolari bo'yicha A.Abduqodirov, M.Lutfullayev, N.Muslimov, Q.Olimov kabi olimlar ilmiy tadqiqot olib borgan.

Ilmiy-metodik tadqiqot ishlari ko'lami shunchalik keng qamrovli bo'lishiga qaramasdan arxitektura qurilish chizmachiligi o'qitish jarayonida talabalarning me'morchilik bilimlarini o'zlashtirish va unga doir ko'nikma va malakalarini shakllantirish, arxitektura qurilish chizmachiligini o'qitish jarayonida kompyuterdan foydalanish imkoniyatini tadqiq etish muammolari o'z echimini yetarlicha topgani yo'q.

Dissertasiya ishi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da belgilangan kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlariga tegishli "Fan bilan ta'lim jarayoni aloqadorligini rivojlantirish" bandi hamda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ni joriy etish jarayonida uzluksiz ta'lim-tarbiya tizimini rivojlantirish muammolarini ilmiy tadqiq etish" Davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasida amalga oshirilgan.

**Tadqiqot maqsadi.** Arxitektura qurilish chizmachiligin o'qitish nazariyasini va amaliyotini har tomonlama tahlil qilish va arxitektura qurilish chizmachiligin o'qitish jarayonida talabalar bilimlarini rivojlantirishning ilmiy asoslangan

metodlarini ishlab chiqish va tajriba-sinov o'tkazish asosida ilmiy-metodik tavsiyalar tayyorlashdan iborat.

### **Tadqiqot vazifalari.**

1. Bo'lajak muhandislik grafika o'qituvchilarining - muhandislik grafikasi bo'yicha kasbiy tayyorgarligi tizimi mazmunining nazariy va amaliy holatini o'rGANISH va taxlil qilish.
2. Arxitektura qurilish chizmachiligi fanidan talabalarning bilimlarini takomillashtirishda zamonaviy grafik dasturlar bilan ishlash va ularni rivojlantirish mumkin bo'lgan imkoniyatlarini aniqlash.
3. Arxitektura qurilish chizmachiligini o'qitish jarayonini bevosita qurilish inshootlari ob'yektlari bilan bog'lash metodikasini ishlab chiqish va ishlab chiqilgan metodika samaradorligini amaliyotda sinab ko'rish.
4. Talabalarning bilim darajasini oshirish va rivojlantirishga yo'naltirilgan elektron qo'llanmalar mazmun-mundarijasini aniqlash, yaratish va samaradorligini pedagogik tajriba-sinovda tekshirib ko'rish.
5. Grafik dasturlarni ishlatish bo'yicha ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish va amalda sinab ko'rish.

**Tadqiqot ob'yekti.** Oliy o'quv yurtlari muhandislik grafikasi ta'lim yo'nalishi, arxitektura fakulteti va arxitektura qurilish chizmachiligi fanini o'qitish jarayoni.

**Tadqiqot predmeti.** Muhandislik grafikasi o'qituvchilarini tayyorlash bo'yicha taxesil olayotgan-talabalarning arxitektura qurilish chizmachiligi ilmini egallash jarayonidagi elektron o'quv qo'llanmalarni tayyorlash metodikasi va texnologiyasi.

**Tadqiqot metodlari.** O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasidagi hujjatlarini o'rGANISH, didaktikada qabul qilingan tadqiqot metodlari, didaktika, arxitektura qurilish chizmachiligi, topografik chizmachilik, chizmachilik va tabiiy fanlarni o'qitishda "elektron qo'llanma yaratishni rivojlantirish" tushunchasi va bu

faoliyatga yordam beruvchi usul va metodlarning nazariy tahlili; ilmiy muammoga aloqador muhandislik amaliyoti, elektron qo'llanma, virtual stend, darslik, metodik qo'llanma va didaktik materiallar tahlili; arxitektura qurilish chizmachiligin o'qitishda foydalanilayotgan grafik dasturlarni ko'rilib qurilish muammo nuqtai nazaridan tahlili; ilg'or muhandis pedagog o'qituvchilarining darsini kuzatish, o'qituvchi va talabalar bilan so'rovnomalari o'tkazish, tajriba-sinov ishlarini olib borish va ulardan olingan natijalarni matematik-statistik jihatdan baholash.

**Tadqiqotning ilmiy farazi:** Elektron qo'llanmalar yaratish va ta'lim jarayonidagi nazariy bilimlarni axborot-kommunikatsiya texnologiyalarida bajarish tizimi tuzilsa, talabalarning bilish faoliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan elektron ta'lim resurslari yaratilib ta'lim jarayoniga tadbiq etilsa, talabalar grafik va muhandislik tasavvuri hamda bilish faoliyatining rivojlanishiga erishish mumkin.

### **Himoyaga olib chiqilayotgan asosiy holatlar:**

1. Arxitektura qurilish chizmachiligin o'qitish jarayonida talabalar bilimlarini shakllantirish va grafik tafakkurini rivojlantirishdagi ahamiyati tavsifi.
2. Arxitektura qurilish chizmachiligin o'qitish jarayonida zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalaridan keng foydalanish, talabalar grafik faoliyatining turlari, ularning o'ziga xos xususiyati, bilish faoliyati va grafik tafakkurini rivojlantirishdagi roli.
3. Muhandis pedagoglarni o'qitish jarayonida qo'llaniladigan grafik chizish dasturlarini amaliy ishlata bilshi va talaba tafakkuriga ta'sir etish darajasiga ko'ra tabaqlashtirilgan tizimi.
4. Arxitektura qurilish chizmachiligin o'qitishda kompyuter texnologiyasi yordamida grafik chizish dasturlari paketi bilan bog'liq bo'lган mavzular mazmuni va o'qitish metodikasi.

### **Ilmiy yangiligi:**

1. Didaktika va o'qitish metodikasi tamoyillari asosida grafik chizish ta'rifi va tasniflanishi berildi, elektron qo'llanmalarning talabalar grafik tafakkurini

rivojlantirishidagi o'rni va ahamiyati aniqlandi, talaballar tafakkurini rivojlantirish bosqichlari ishlab chiqildi.

2. Arxitektura qurilish chizmachiligi o'qitish jarayonida o'quvchi talabalarning bilish faoliyati va grafik chizish dasturlari asosida izchil rivojlantirish birinchi bor tajribada sinab ko'rildi.

3. Muhandislik grafikasi ta'lim yo'nalishi arxitektura qurilish chizmachiligi fanida kompyuter texnologiyasidan foydalanish imkoniyatlari tadqiq qilindi va undan foydalanish metodikasi ishlab chiqildi.

4. Muhandislik grafikasi ta'lim yo'nalishi talabalar uchun arxitektura qurilish chizmachiligi faninidan 624 MB hajmdagi elektron qo'llanma tayyorlandi hamda pedagogik tajriba-sinov asosida tekshirib ko'rildi.

**Dissertasiya natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Arxitektura qurilish chizmachiligini o'qitish jarayonida eletron o'quv qo'llanmalar bilan bog'liq bo'lgan mavzular mazmuni va animatsion kadrlar majmuasini yaratishning usul va omillari asoslab berildi. Talabalarning bilish faoliyatini rivojlantiruvchi metodika, pedagog muhandislarni o'qitish samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Nazariy tadqiqot va tajriba-sinov natijalari arxitektura qurilish chizmachiligi ta'limi uchun yangi turdag'i didaktik materiallar ishlab chiqishga imkon beradi, shuningdek, natijalardan muhandislik grafikasi ta'lim yo'nalishi, arxitektura qurilish chizmachiligi fanini o'qitish jarayonida foydalanish mumkin.

**Dissertasiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertasiya kirish, uch bob, bir necha pararif umumiy xulosa, adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ishning hajmi 109 sahifani tashkil etadi.

## **I BOB. ARXITEKTURA QURILISH CHIZMACHILIGIDA BINONING PLANI VA FASADI**

### **1.1. Arxitektura qurilish chizmachiligin takomillasha borishining qisqacha tarixi.**

Chizmachilikning rivojlanishi rasm solishdan boshlanadi. Qadimiy misrliklar turar joylarini, saroylarni, ibodatxonalarini qurishda eng oddiy usul bilan bo'lsada, bu inshootlarning shakl va o'lchamlarini ko'rsata olganlar. Qadimgi zamон papiruslari, granitga solingan rasmlar, saqlanib qolning devoriy naqqoshlik san'ati qadimgi xalqlarning chizma sohasidagi tushunchalarni aks ettiradi, shaharlarning saqlanib qolgan planlari, binolarning plan va fasatlari hamda boshqa hujjatlar buning dalilidir. Grafika bo'yicha dastlabki ishlar bizning asrimizdan 300 yil muqaddam paydo bo'lган. Masalan Evklidning "OPTIKA" degan asarida jismlarni "qurish" shartlari to'g'risida bir qator aksioma va teoremlar bor. O'rta asrning boshlanishi tasvirlash usullarining rivojlanishiga dalil bo'luvchi hech qanday hujjat qoldirmadi. Bu usullar uyg'onish davridagina takomillasha boshladi.

O'rta Osiyoda Temuriylar va uni nabirasi Ulug'bek davridagi binolar o'rganilsa naqsh va bino tuzilish loyixalari chizmalar asosida o'rganilsa naqsh va bino tuzilish loyixalari chizmalar asosida ko'rilganligidan dalolat beradi. Ammo yozma dalillar kam.

Sirkul 900-1050 yillar Ibn Sino asarlarida, Abu Rayhon ishlarida hamda Osiyo olimlarining ishlarida uchraydi.

XVII asrning boshlarida tasvir qilish metodlari rivojlana boshladi, bunga Pyotr I ning farmoniga muvofiq Semen Remezov tuzgan Sibir shaharlari va yerlarining chizmachilik kitobi atlasi dalil bo'la oladi.

1719 yilda shaxsan Pyotr I chizgan 22 eshkakli qayiqning chizmasi arxivlarda saqlangan. Chizmani tuzishda proyeksiyalarning bog'lanishiga rioya qilingan va ustiga qo'yib kesim berish usulidan foydalilanilgan.

Mustaqil ravishda o'qib mexanik bo'lган "Tuxumsimon" murakkab soati tufayli shuxrat qozongan mashhur olim va XVIII asrning fan hamda texnika navatori I.P.Kulibin preksiyalash vaqtlarida chizma va rasmlardan keng ravishda foydalangan.

Uning taklifiga binoan Neva daryosida solingan ko'priklarning loyixalari, semofor tulegrafning loyixasi va boshqalar hammaga ma'lumdir. 1791 yilda I.P.Klubin "o'zi yuradigan aravacha" ixtiro qildi, unda hozirgi zamon avtomobilining deyarli barcha elementlari mavjud edi. Fedor Borzovning "ko'tariladigan darvoza" chizmasi ham o'sha vaqtda chizilgan.

Chizmalar o'z tarixiga ega bo'lishi bilan birga, xalqlar madaniyatining taraqqiy etishiga oid bo'lган tarixni ham saqlab qoladi. Rasmlar, haykallar va chizmalarga qarab, kadimgi zamonda xalqlar yashaganligi to'g'risida ko'p ma'lumotlar olish, shuningdek, katta ahamiyatga ega bo'lган yodgorliklarni qayta tiklash mumkin bo'ladi.

Hozirgi vaqtda chizmalar xalq xo'jaligining barcha, masalan, zavod fabrika qurilish ob'yektlarida, qishloq xo'jalik va boshqa tarmoqlarida keng miyosida foydalanimoqda. Mixail Ivanovich Kalinin: "Rasm va chizmani o'qiy bilish asbobni, stanokni, mashinani va turli murakkab agregatlarni o'rganishni ancha osonlashtiradi" degan edi. O'quv yurtlarida nazariy, texnik va maxsus fanlarni o'qish o'rganish davrida chizmalardan ko'p foydalilanadi. Kartalar, grafiklar va diagrammalardan geografiya va tarixni o'rganish vaqtida foydalanssa, rasm va chizmalardan esa fizika, ximiya va geometriyani o'rganish vaqtida foydalilanadi. Chizma va rasmlar yozuvlarni kamaytiradi, kursning o'zini esa tushunarli va esda qoladigan qilib tushinishga imkon beradi. Ko'p mashinalarni va ular ichida sodir bo'ladigan protsesslarni grafik tasvirsiz tushintirib bo'lmaydi.

Texnika chizmalarini to'g'ri ko'rish usullari, shuningdek, chizmachilik xo'jaligining barcha sohasini to'g'ri tashkil qilish haqidagi fan chizmachilik deyiladi.

Xalq xo'jaligining tarmog'iga qarab, unda foydalaniladigan chizmalar har xil nom bilan yuritiladi. Zavod hamda fabrikalarda stanoklar, mashinalar, teplovozlar, traktorlar, samolyotlar, elektrodvigatellar, o'lchash asboblari va instrumentlarni yasash uchun tuzilgan chizmalar mashinasozliq chizmalar deyiladi. Mashinasozlik chizmalarini bajarish usullarini o'rgatadigan chizmachilikning qismi mashinasozlik chizmachiligi deb ataladi. Bino, ko'pri, to'g'on, yo'l, kanal va mudofaa inshootlarini qurishda ishlatilgan chizmalar injenerlik-qurilish chizmaliyi deyiladi. Bu chizmalarni bajarishning mohiyati injenerlik-qurilish chizmachiligi qismida o'rnatiladi. Yer satxini tasvir qilish chizmalari topografik chizmaliyi deyiladi. Topografik chizmalardan ba'zan injenerlik inshootlarini va loyihalashda va ularni berilgan ma'lum uchastkada to'g'ri joylashtirish maqsadda ham foydalaniladi. Sxemalar, grafiklar, diagrammalar illyustratsiya chizmachiligi qismini hosil qiladi.

Chizmachilik kursida eskizlarning, ya'ni chizma asboblaridan foydalanmasdan chamalab, chizma qoidalariga rioya qilib, qo'lda chizilgan tasvirlarning ahamiyati juda kattadir.

Me'morchilik xalq arxitekturasida bino va inshootlarning qurilish san'atini ifodalovchi atamadir. Me'morchilik bino va inshootlar qurishning o'ziga xos texnikasini, san'atini, xalq tarixini, uning ijtimoiy-siyosiy qudratini, diniy va dunyoviy qarashlarini, madaniy-maishiy hayotini ma'lum shaklda mujassam etadi. Me'mor — binokor usta; bino va inshootlarning loyihasini yaratuvchi va ularning qurilishini nazorat qilib boruvchi bosh mutaxassisidir.

Arxitektura (lot.) me'morchilik san'ati inson ijodiy faoliyatining qurilish bilan bog'liq bo'lган alohida turidir, u me'morchilik san'ati tarixi, qonuniyatları, nazariyasi, binolarning turi va uslubi, kompozitsiyasi kabi qator masalalarni o'rganuvchi fandir. U jamiyatning ijtimoiy-maishiy va g'oyaviy-badiiy

ehtiyojlariga xizmat qiladi. Turli-tuman binolar, ularni loyihalash va qurish, inshootlar, shahar va qishloqlar keng ma'noda arxitektura nomi bilan yuritiladi.

Arxitektura kishilik jamiyat taraqqiyotining ilk bosqichlaridayoq paydo bo'lgan. Ibtidoiy odam tabiat kuchlaridan o'zini muhofaza qilish uchun hayotiy zarurat tufayli oddiy mag'ora va chaylalar yasagan. Inshootning ko'rkgiga ham e'tibor berib, go'zallik qonunlari asosida ijod eta boshlagan.

Arxitektura quldorlik jamiyat davrida tez taraqqiy topgan. Jamiyatning sinfiy talablariga munosib uy-joy va jamoat binolari yaratilgan. Qadimiy Sharqda piramida, zikkurat kabi ulkan diniy inshootlar kompleksi, murakkab rejali saroylar va boshqa inshootlar barpo etilgan. Fanning ba'zi nazariy va amaliy masalalari ishlab chiqilgan. Qadimgi Yunonistonda maktab, stadion, teatr, ibodatxona, amfiteatr kabi turlari paydo bo'lgan.

Ellinism davriga kelib order sistemasi arxitekturaning konstruktiv va badiiy asosiga aylangan. Qadimgi Rimda beton ishlatilishi davri ravoq va gumbazlar arxitekturasining rivojlanishiga olib kelgan. Forum, Zafar darvozasi kabi harbiy qudrat g'oyalarini namoyish etuvchi yangi inshootlar paydo bollgan. Binolar bezagiga e'tibor ortgan.

O'rta asrlar arxitekturasida roman (X - XII asrlar) uslubi, keyinroq gotika (XII-XV asrlar) uslubi alohida o'rinn tutgan. Gotika arxitektura uslubiga xos bo'lgan cho'ziq ravoqlardan iborat konstruksiyali binolar ichida monumental ibodatxonalar diqqatga sazovor bo'lgan.

Uyg'onish davri - Renessans (XV asr oxiri - XVI asr boshlari) uslubi negizini qadimgi klassik arxitektura prinsiplarining yangi davr talablari asosida rivojlantirishni tashkil etgan. Bu davrda keng ko'lAMDAGI va murakkab ko'rinishdagi inshootlar yaratilgan. XVI asr o'rtalarida uslub o'zgargan. Binolar haddan tashqari bezakdor (barokko uslubi) qurilgan.

XVII-XIX asrlarda bu serahasham yechimdan voz kechishga intilish boshlangan. Klassik va Renessans arxiteturasining usul va prinsiplarini yangi zamonga tatbiq etish natijasida klassizm uslubi paydo bo'lgan.

Markaziy Osiyo arxitekturasi ham o'ziga xos Uyg'onish davrini bosib o'tgan. Arxitektura uslubida naqsh va rangga alohida e'tibor berilgan, binolarnig yangi turlari va kompozitsiyalari ijod qilingan. Buddha dini tarqalgan yerlarda Buddha haykallari bilan bezatilgan ibodatxonalar bunyod etilgan. Rus arxitekturasida yetuk inshootlar, ularning komplekslari va ansabllari qurilgan.

Kapitalistik jamiyatning paydo bo'lishi va rivojlanishi XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning boshlarida yangi tipdagi inshootlarni bunyod etishga olib kelgan. Fabrika, zavod, elektr stansiya, vokzal, avtovokzal, garaj, elevator, birja, firma singari bino va inshootlar qurila boshlangan. Temirbeton, metall konstruksiyalari va boshqa qurilish materiallari (oyna, plastmassa va hokazo) arxitektura uslubida tubdan o'zgarish yaratgan. Yangi texnika va uslublar yaratilgan. Bular hammasi ko'p qavatli binolar va inshootlar barpo etish imkoniyatini yaratgan. Namunaviy yechim va standartlar ishga tusha boshlagan. Yangi material, texnika, yangi tamoyil va talablar yangi arxitekturani yaratgan. Natijada fanda turli oqimlar paydo bo'la boshlagan.

Funksionalistlar binoning go'zalligi uning shakli va funksiyasining uzviyligi, konstruksiyaning nafis va materiallarning tabiiy bo'lismiga bog'liq deb ta'kidlasalar, boshqa bir guruh arxitektorlar yangi arxitekturada bezatuvchilikka umuman o'rinni yo'q deb aytganlar. Qurilish texnikasining yutuqlari va imkoniyatlariga asoslanib, faqat shakl bilan qiziqib, arxitekturaning g'oyaviy-badiiy sifatlarini inkor etish natijasida konstruktivizm oqimi paydo bo'lgan. Elektika va modernga qarshi chiqib, inshootlarning sodda, ehtiyojni qondiradigan, tejamli bo'lismini talab qilganlar. Bu oqim namoyandalari zamонавији qurilish materiallarining (temirbeton, oyna) badiyiliginini ko'rsatishga uringanlar, bezaklardan voz kechganlar, devorlarda derazalarning behad keng bo'lismiga ahamiyat bergenlar.

Keyingi davr arxitekturasi har bir xalqning milliy arfanalari, turmush sharoiti, madaniyati, tabiiy sharoiti va mavjud qurilish materiallariga qarab bino va inshootlarning o'ziga xos shakl va turlarini yaratgan. Arxitekturada turar-joy, madaniy oqartuv binolari, teatr, muzey, maktab, stadion, mudofaa inshootlari,

savdo rastalari, sanoat va transport inshootlari, diniy binolar va ko'plab boshqa inshootlar, ko'cha, maydon, bog' kabi sahnlar orqali o'zaro bog'lanib, mahalla, guzar, daha, tuman, shahar kabi komplekslarni tashkil etgan.

Arxitektura inshootlari jamiyatning moddiy ehtiyojlaridan tashqari, o'sha davr ijtimoiy hayotidagi asosiy g'oyalarni ham ifoda etgan. Masalan, ulug' bobo'liz Amir Temur ulkan arxitektura binolari va inshootlari orqali ham (masalan, Shahrsabzdagi Oq-saroy) o'z qudratini namoyish etgan.

Amaliyotda arxitektor mavjud imkoniyatlar asosida bino barpo qiladi. Binoning o'rni va mavqeiga qarab uning badiiy obrazini yaratadi. Buning uchun u fanning yutuqlarini chuqur o'rgangan bo'lishi, mahalliy va tabiiy sharoitlar, xalqning milliy va badiiy analalari, did va talablarini hisobga ola bilishi kerak. Ayni vaqtda O'zbekiston milliy arxitekturasi jahon arxitekturasi yutuqlaridan foydalangan holda, zamonaviy qiyofaga kirib rivojlanmoqda, yuksaklikka intilmoqda.

Vatanimiz O'zbekistonda tarixdan ma'lumki, kishini zavklantiradigan chiroyli shaharlarimiz va tarixiy me'morchilik obidalarimiz bor. Masalan: Buxoro, Samarkand, Xiva, Termiz, Toshkent kabi shaharlar va Minorai Kalon, Bibixonim madrasasi, Paxlavon Maxmud maqbarasi, Islomxo'ja minorasi, Ko'kaldosh madrasasi tarixiy obidalar misol bo'la oladi.

Tashqi bosqinchilar tomonidan ko'pgina shaharlarimiz bo'zilib, binolar ko'rki, xattoki o'zi ham yuk bo'lib ketgan. Ular Qum tepa nomini olib kelganlar. Misol: Toshkentda Chosh tepa, Samarkanda Afrosiyob, Buxoroda Varaxsha, Shaxrivayrona va boshqalar. Shulardan ma'lumki, ota-bobolarimiz go'zal va mustahkam binolar tiklashgan va bu narsani Ismoil Somoniylar maqbarasi misolida ko'rsatilgan. Ajdodlarimiz ulkan mexnat va katta ilmiy ishlar qilishgan. Bu ishlar haqida yoshlarimizga ma'lumot berib, ularni xuddi shunday vatanga muxabbat ruhida tarbiyalashimiz zarurdir.

Bino turlari va ularni loyihalash bosqichlari.

Binolar vazifasiga ko'ra 4 ga bo'linadi:

Jamoa binolari. Ularga turar joy uylari, xalq talabini qondiruvchi binolar - biblioteka, maktab, bog'cha, magazin, uy-ro'zg'or buyumlarini ta'mirlash binolari va boshqalar kiradi.

Sanoat qurilish binolari - ishlab chiqarish quollarini tayyorlab beruvchi binolar kiradi. Masalan: fabrika, zavod, elektrostanstiya, depo, garajlar va hokazolar.

Qishloq xo'jalik qurilish binolari. Bunday binolarga qishloqda yashovchi aholi talabini qondiruvchi binolar kiradi - tovuqchilik fermasi, mollarni boqish uchun mo'ljallangan binolar, mashina traktor parki, meva-cheva asrash uchun mo'ljallangan omborlar, ximiyaviy elementlar (ug'itlar) saqlash binolari va boshqalar.

Injenerlik inshootlari. Bularga ko'priklar, tunnellar, yo'l estakadalari, qirg'oq buyi inshootlari, domna pechlari, rezervuarlar va minoralar kiradi. Bu binolar odatda bir qavatli yoki ko'p qavatli bo'ladi.

Qurilishni chizmasini bajarish ikki bosqichdan iboratdir:

**I-bosqich.** Berilgan maydonga qurilishi lozim bo'lgan imoratni o'rni uncha zarur bo'lgan qo'shimcha qurilishlar ishlatalishi uchun va obodonlashtirish uchun maydonchalar joyini chizmasi. Arxitekturli ko'rinishi katta ya'ni asosiy qismlar uchun joy eskizi va o'lchami kabilar zarurligi. Masalan 12-chizma. Maktab qurilishi uchun ajratilgan joy va uni taksimotini bosh loyihasi. Uning davomi esa (22- chizma) o'quv binosining ichki taqsimot loyihasi 1 -2 – 3 qavatlar plani haqida umumiylar ma'lumot berilib, u GOST talabiga muvofiq o'lcham asosida chiziladi.

Bosh loyihada bino atrofidagi qo'shimcha qurilishlar ularning vazifalari, aniq o'lchamlari asosida maydoni chiziladi. Hatto go'zallashtirish bog'laridagi zaruriy o'simliklar haqida ham aniq bir qarorga kelishilgan bo'ladi. (-chizma)

Asosiy ish bajaruvchi binoni loyihasida ham shu talab bo'lib xonalar maydoni va xizmati zinalar uchun joy, deraza va eshiklar o'rni ajratiladi. Tutun, havo tozalagich mo'rilar va chortoq plani ham beriladi.

Arxitektura-qurilish va injenerlik inshootlari loyiha hamda smetalarga asoslangan holda ko'rildi. Loyihaga ko'rildigan inshootning chizmalari, tushintirish xati va smetasi kiradi. Chizmada bajarilishi kerak bo'lgan ishlar, smetada esa inshootning to'la narxi ko'rsatiladi.

Undan tashqari smetada ayrim ishlarning hajmi, qurilish buyumlari va ularning soni, mutaxasis ishchilar va qurilish mexanizmlarining soni ko'rsatiladi. Loyiha hujjatlarini alohida loyiha tashkilotlari va institutlari tuzadi. Loyiha bir yoki ikki bosqichda bajariladi.

Katta qurilishlar va uning murakkab loyihalari – bu industrialashgan mexanizmlar hamda mashinalarni sistemali ishini yo'lga quyishdan iboratdir.

1. Industrialashgan qurilish shuni talab qiladiki, sistemaga solingan guruh mashinalar bir necha ishlarni bir vaqtda parallel bajarib borishni yo'lga quyishni tashkil qilishdir. Qurilish materiallarni yig'ish va o'z joyiga qo'yish va mahkama ishlari bir vaqtda bajarilib boriladi.

2. Yig'ma- qurilish materiallarini elementlari fabrika va zavodda tayyorlanib uni ma'lum ish bajarish holiga keltirib yigelganiga aytildi.

Yig'ish uchun yasalgan qurilish elementlari GOST talabi bo'yicha aniq o'lchamli va muhandislik hisob kitobiga to'la javob beradi, yig'ishda qulaylik tug'diradi.

3. Birxilllik (tipizastiya) dan ilmiy mustahkam iqtisodiy jihatdan kam chiqim, sifatli va GOST talabiga javob beradigan qurilish materiallari bir xil turda bo'lган ko'п sonli ishlab chiqariladi. U boshqa binolarga ham ishlatiladi va bir necha bor takroriy ishlatish ham mumkin.

4. Standartizastiya- har tomonlama o'zini oqlagan, sinovlardan yaxshi chizgan eng namunali detallarni, birxillik o'lcham asosida ishlab chiqarilib, u GOST ga kiritiladi. Fermalar, bloklar, deraza va boshqalar shular jumlasidandir.

Tarkibi va tashqi sifati qattiq standart talabi asosida ishlab chiqariladi. U davlat qonuni GOST ga kiritilgan bo'ladi.

Bunday detallar binoga keraklicha ishlab chiqarilib, bino qurilishini tezlatadi. Iqtisodga katta foyda keltiradi. Yig'ish ishlari osonlashadi, hamda ishonchli, mustahkam bo'ladi.

Unifikastiyadan bir binoda bir turdag'i detalni berilgan son kadar bir turda ishlab chiqariladi va ularni o'rnini almashtirish iloji bo'ladi.

O'zaroalmashuv yoki moslik – bunday detal o'zini o'lchami va mustamligi bilan boshqa detal o'rnini almashtirish kuchiga ega.

Universallik- bu yuqoridagi kabi bo'lib, boshqa detaillar vazifasini ham bajarish mumkin.

Bir turdag'i qurilish materiallari ishlab chiqarishda o'zini oqlagach xalqaro GOST yoki model koordinastiya razmerov v stroitelstve (MKRS)ga kiritiladi.

Yuqorida keltirilgan ayrim turkumdag'i qurilishlarni ichki va tashqi qurilish oldidagi talablarni qoniqtiradigan loyihalar tuzilishi va ularni ko'rish zaruriyat tug'iladi. Buning uchun qurilish chizmachiligini har tomonlama ilmiy o'rganish va bajarish zarurdir.

Qurilishning umumiyligi loyihasi qurilish maydonini tekislab loyihani tuzishdan boshlanib, unda er osti inshootlari, kanalizastiya, issiq va sovuq trubalarini joylashtirish, elekrt va telefon tarmoqlarining asosiy tarmoq bilan ulanish joylari (nuqtalari) belgilanadi. Bunday yangi tipdag'i loyihada yuqorida keltirilganlardan tashqari, binoning plani, fasad iva qirqimi hamda ayrim elementlarning joylashishi chizmalari ko'rsatiladi.

Agar 1975 yilda davlat tomonidan ko'rilgan uylarning uchdan bir qismidan ko'prog'i yangi tipdag'i loyihalar asosida bajarilgan bo'lsa, hozir 70% dan ortig'i uy joy bilan ta'minlandi. Bu esa loyiha va smetalar narxiga birmuncha ta'sir qildi.

Mustaqillikning yana bir sharofati shu bo'ldiki, binoning tashqi ko'rinishi va ko'cha dizayniga (chiroyiga) katta ahamiyat berildi.

Qurilish chizmachiliga qurilish abyektlarining yani fuqaro va sanoat binolari yoki injenerlik inshootlarining (ko'prik, kanal, tonel, metro, va boshqalar) chizmalari kiradi. Qurilish chizmachiligi judda murakkab va ko'p qirrali bo'lib, quyidagilardan tashkil topadi.

Arxitektura – qurilish chizmachiligi

Injenerlik - qurilish chizmachiligi

Topografik - qurilish chizmachiligi

Arxitektura - qurilish chizmachiligiga turar joy, maktab, kasalxona, sex, sklad va boshqalar kiradi. Qurilish chizmachiligining fuqaro va sanoat qurilishi chizmalarini o'rgatadigan bo'limi arxitektura- qurilish chizmachiligi deyiladi.

Injenerlik - qurilish chizmalariga ko'prik, kanal, yo'l, to'g'on, shaxta va mudofa inshotlari kiradi.

Topografik- qurilish chizmachiligidagi esa yer sirtining tuzilishi tasvirlanadi.

Yuqorida sanab o'tilgan inshotlar daslab o'z o'lchamlari bilan mashinasozlik chizmachiligidan tubdan farq qiladi. Ko'pchillik xollarda bir inshot bo'yisi eni va balandligi o'lchamlari bir- biridan katta farq qiladi. Temir yo'l polotnosining ko'ndalang o'lchamlari o'nlab metrlar bilan uzunligi esa yuzlab kilometrlar bilan o'lchanadi bu esa injenerlik inshotlarini chizmalarini chizish uchun maxsus ussular talab qiladi.

Inshotlar betondan , temir betondan pishiq g'isht va yog'ochdan quriladi. Yangi qurilish materiallar : issiq biton, plasmasallar, fibrolit, solomit va hokazollardan foydallaniladi. Shuning uchun qurilish chizmachiligidagi ishlataladigan shartli belgillarni bilish zarur. Turli materiallar uchun kesimdagi shtrixoga ko'rsatilgan.

Binollar proyekt va unga kiritilgan smeta bo'yicha quriladi. Proyektlash ikki bosqichda olib boriladi.

Birinchi bosqichda topshiriqning proyekti tuziladi. Ikkinci bosqichda esa topshiriqning proyektiga asosan ish chizmasi, yani ish proyekti bajariladi. Binoning proyektida topshiriqning umumiyligi, texnikaviy imkoniyatlari va joyni planlashtirishda tejamlik binoning umumiyligi kompozitsiyasi hamda qurilish materiali va konstrksiyalarini tejamligiga etibor beriladi. Topshiriqning proyektida asosan uning ish chizmasi quyidagicha ishlab chiqiladi.

Umumiy arxitektura- qurilish chizmachiligi

Chizmalarini detallarga ajratish

Arxetektura qurilish chizmachiligiga planlar, fasadlar, qirqimlar, fundamentlarning plani, yopmalar va hokazolar kiradi. Ayrim xollarda fasadning fragmentlari va plan elementlari yirik mashtablardan chiziladi. Chizmalarni detallarda ajratishda uning konstruksiyalari, aloxida detallarning o'lchamlari va materiallar xamda binoning elementlari ko'rsatiladi. Fuqaro va sanoat qurilish ishlarida hamma ishlar umumiyligi va maxsus qurilishlarga bo'linadi. Umumiyligi qurilish ishlariga ob'yektning qurilishi boshlangandan yakunlangancha bajarilgan ishlar kiradi. Maxsus qurilishga esa kanalizatsiya esa vodoprovod va ventilyatsiya isitish sovutish gaz bilan taminlash va boshqalar kiradi.

Chizma mashtabi: qurilish chizmachiligida qabul qilingan masshtab mashinasozlik chizmachiligida qabul qilingan masshtabdan farq qilmaydi yani GOST 2.302 -68 ga muvofiq bajariladi. Chizma chizishda buyumning xaqiqiy kataligini tasvirlovchi 1:1 masshtabi eng qulaydir, lekin qurilish chizmachiligida 1:1 masshtab bilan bajarilgan inshoatning chizmasini farmatga joylashtirish mumkin emas. Qurilish chizmachiligida quyidagi masshtablar ishlataladi.

Bosh plan .....1:500

Bino plani.....1:200,1:100

Fundament plani ...1:100,1:100

Qavatlar aro plan...1:100

Fundamentning kesim va detail....1:50

Qirqimlar va fasadlar...1:50,1:100

Fasad va qirqim elementlari...1:50

Bino elementlari....1:20

Chizma chiziqlari. Qurilish chizmalari asosiy tutash shtrix – punktir shitirix chiqarish va o'lcham chiziqlari bilan chiziladi.

Chizma chiziqlarining yo'g'onligi asosiy tutash chiziqlarining yo'g'onligiga nisbattan aniqlanadi. Asosiy tutash chiziq chizmaning masshtabiga va buyum grafikaviy tasvirini oddiy yoki murakkabligiga qarab tanlanadi. Umuman kesimga tushgan barcha kesimlar asosiy tutash chiziqlar bilan kesimga tutashmagan (masalan deraza va eshek o'rni ) ingichka tutash chiziqlar bilan kesimga

tushmagan chiziqlab bilab yuqoriga qaraganda ko'zga ko'rinnmaydigan elementlar shtirx chiziq bilan chiziladi.

O'lcham o'yish. Arxetektura-qurilish chizmalarida o'lcham qo'yish mashinasozlik chizmalaridagi o'lcham qo'yishdan farq qiladi. O'lcham chiziqlari uchlariga sterilkalar yoki sterelkalar o'rniga kichkina chiziqlar chizish mumkin. Zaschkalar o'lcham chiqarish va chiqarish chiziqlari  $45^{\circ}$  burchak bilan chiziladi qurilish chizmalarida o'lchamalar melemetr xisobida qo'yiladi. Agar o'lchamalar boshqa biror o'lcham birligida qo'yilgan bo'lsa chizmada tegishli izoxlar beriladi.

O'lchamlar bazalardan qo'yilmaydi balki zanjir ko'rinishida masalan devorlarning bo'lувчи o'qlari masofalar ko'rinishida qo'yiladi. Binoning planlarda o'lchamlar uch qator, ayrim xollarda to'rt qator o'lcham chiziqlari bilan qo'yiladi. Planda barcha garizantal o'lchamalar mukammal va aniq ko'rsatilishi lozim. Devorlar plandagi o'lchamlar ikki grupaga bo'linadi.

Binoning tashqi o'lchamlari. Ular uch xil o'lcham belgisi bilan ko'rsatiladi. Birinchi o'lcham tashqi devor o'q chiziqlari oralig'I ikkinch o'lchamda ustun va ichki ko'ndalang devorlar o'q chiziqlarining oralig'i uchunchi o'lcham belgisida binoning tashqi ko'rinishi chekka burchagi bilan birinch derazagacha bo'lgan masofa va derazalar oralarining kengligi ko'rsatiladi.

Bo'lib ko'rsatilgan o'lchamlarning yig'indisi devorning uzunligiga teng bo'lishi kerak. Shunday o'lchamlarni ko'rsatuvchi belgillar bino planning to'rt tomonidan qo'yiladi.

Bunda aloxida xonalarning bo'yi va eni ichki devorlar parda devorlarining qalinligi , ustunlarning kesimlari, eshik, deraza, zina, dudburon, ventelatsiya kanallari va shu kabilarning o'lchamlari asosiy ichki o'lchamlar hisoblanadi.

Ichki o'lchamlarni ko'rsatishda devorlarning qalinligi hisobiga olinadi va tashqi o'lchamlar bilan mos kelishiga rioya qilinadi.Binoni qurish vaqtida plandan foydanalanish qulay bo'lish uchun undagi o'lchamlar mukammal va aniq yozilgan bo'kishi kerak.Chizma chiziqlari bir- biri bilan qo'ahilib ketmasligi uchun o'lcham chiziqlari orasidagi masofa 20...30 mm, birinchi o'lcham chiziqlari bilan

ikkinchi o'lcham chizig'i orasidagi masofa esa 5...10 mm, bo'lishi kerar.Odatda fasdlar chizmalariga o'lchamlar qo'yilmaydi.

Bino elemenlarining balandlik bo'yicha o'lchamlari balandlik otmetkalari yordamida aniqlanadi.Uchburchakning o'ng tomoni qoraga bo'yab qo'yiladi.

Uchburchakning chiqarish chizig'iga elementning nolli otmekada hisoblangan balandligi metr hisobida yoziladi.Nolli atmetka sifatida birinchi qavat polining sathi olinadi va bu sathni Q 0.00 ko'rinishida belgilanadi.

Bir qavatli binoning umumiy balandligi to'rt qisimdan iborat.

1.Soqol qismi.U yer yuzasidan 45...50 sm baland va birinchi qavat poli bilan bir tekislikda bo'ladi.Sokol devordan chorak g'isht o'lchamida keng bo'ladi.

2. poldan shipgacha bo'lgan masofa binonig ichki balandligi hisoblanadi.

3.yopmalar qalinligi bu o'lcham materiallarning turiga qarab belgilanadi.

4.Chordoq tomi bilan mauerlat sinchi ostida bo'lgan balandlik (30 sm gacha).

Ko'p qavatli binolarda birinchi qavat polidan ikkinchi qavat poligacha bo'lgan masofa bino qavatining balandligi hisoblanadi..


Pol bilan deraza tokchasi orasidagi balandlik turar joy binolari uchun 0.82...0.9m, sanoat binolari 0.6..1.2m gat eng.

Eshik va deraza o'rminig balandligi GOST bo'yicha olinadi. Deraza o'rnining usti bilan shipgacha bo'lgan masofa 40...60 sm qilib olinadi.Tomga dudburonlar o'rnatiladi.

## **1.2. Bino plani**

Asosiy qurilish chizmachiligiga-bino yoki inshootni chizmada tasvirlash, ya'ni planlash, qirqimlar va fasadlar bosh planlar kiradi.

Planlar: binoning deraza tokchasidan bir oz yuqorida o'tgan gorizontal qirqim bino qavatining plani deyiladi.Qavatlarning planiga qarab xonalr eshik va derazalarning o'lchamlari hamda joylashuvi devorlarning qalinligi va boshqalar haqida fikr yuritish mumkin.Qirqimga tushgan devorlar shtrixlanadi.tashqi va kapital ichki devor va kalonalarining kesuvchi tekislikka tushgan kon turi asosiy chizig' bilan tasvurlanadi.Kesuvchi tekislikka tushmagan xonalar orasidagi parda devorlar eshik va derazalar kon turi esa ingichka tutash chiziq bilan tasvirlanadi.Deraza eshik darvoza va binolarning binolarning boshqa eleventlarini chizishda shartli standart grafikaviy belgilardan foydalaniladi.bu belgilar deraza , eshik va darvozalarning qaysi tomonga ochilishini ko'rsatadi. (1-chizma)



### 1-chizma

Qavatlar planlarida dush, vanna va shunga o'xshash sanitariy -texnika jihozlar o'rnatiladigan xonalar sanitariya- texnika asboblari ko'rsatiladi, bular shartli grafikaviy belgilar bilan tasvirlanadi.

Konstruksiya elementlari chizmalarida ustunlar va devorlar bo'lувchi o'qlar deyiladi. Planlar binodagi devor va pag'onalarining joylashuvini aniqlovchi-bo'lувchi o'qlarni chizishdan boshlanadi. Masalan 1-4

Bo'lувchi o'qlar orasidagi masofalar yagona modul sistemasidan olinadi va 100 mmga teng asosiy modul Mga karrali bo'ladi. Bo'lувchi o'qlar qadamlar 200, 300, 500, 1200, 1500, 3000, va 6000 mmga teng va mos ravishda 2M, 3M, 5M, 12M, 15M, 30M, 60M bilan belgilangan, yiriklashtirilgan modullar ham ishlatiladi.

O'lchamlar modul sistemasi qurulishida planlashtirish va standartlashtirishga imkon beradi. Bo'lувchi o'qlar belgisi planning pastki va chap tomonlariga chiqariladi. Binoning ko'ndalang joylashgan o'qlari chapdan o'nga qarab raqamlar bilan belgilanadi. Binongning balandligi bo'ylab joylashgan o'qlari esa rus alfaviti harflari bilan pastdan yuqoriga qarab belgilanadi.

Qirqimlar: qurulish chizmalarida vertical va gorizontal qirqimlarning oddiy va murrakab turlari chiziladi. Konstruksiya detallarini mumkin qadar mukammal aks ettirish uchun kesuvchi tekslikni binoning xarakterli joyidan o'tkazish kerak.

Qirqimda ko'proq vertical o'lchamlar masalan eshik va derazalarining balandligini ko'rsatish lozim. binoning hamma konstruksiyalarini uning bitta qirqimi bilan to'la ko'rsatish qiyin, shuning uchun har bir bino planiga bir necha qirqim beriladi konstruksiyalari murakkab bo'lgan binolaridan bo'ylama qirqim chiziladi bunda eshik deraza pechka va zinalar aniq korsatilishi kerak.

**Bosh plan:** asosiy loyiha hujjat bo'lib unda ob'yeqt teritoriasining o'lchamlari va konfiguryasining, mavjud yoki loyihalanadigan bino hamda inshootning joylashuvi va gabaritlari sanitaria himoya zonalarining joylashuvi teritoriyalarining obodonlashtirilganligi ko'rsatiladi. Korxonaning bosh plani chizmasi rayon qurulish ob'yektlartining planlashtirish chizmalari bilan bog'langan bo'lishi lozim.

Bosh plan chizmasining yuqorigi chap tomonidan strelka va harflar bilan ko'rsatiladi daryo suv oqimining yo'nalishi shamollarning esishi yo'nalishi ko'rsatilishi hamda chiziqli masshtab bo'lishi kerak bosh plan chizmalarining chizishda ob'yeqt elementlarining standart shakli tasvirlangan foydalanish kerak masalan bosh planda mavjud bo'lgan korpuslar asosiy tutash chiziq bilan loyihalanadigan binolar yoki yoniga taqab quriladigan inshootlar ingichka tutash chiziqlar bilan buziladigan turar joy binosi esa krestchalari bo'lgan yo'g'on tutash chiziq bilan tasvirlanadi bosh plandagi ob'yektlar eksplikatsiyada ob'yektning tartib nomeri yuqoridan pastga qarab uning nomi ko'rsatilgan holda joylashtiriladi. Bosh planda tasvirlanayotgan bino yoki inshootlarning o'lchamlari katta bo'lganligi sababli 1: 200, 1:400,1:1000 vahokazo masshtablidan foydalaniladi.

Binoni ichki xonalarini, zinapoya katagini joylashishi va eshik, derazalarini o'rnini va ularni o'lchamini, shuningdek xona jihozlarining joylashuvini bilish uchun bino plani ko'rsatiladi.

Plan - binoni deraza va eshiklarini sathida gorizontal tekislik bilan qirqligani va qirqim osti tasviri ko'rsatilgan ko'rinishga aytildi yoki binoni asosiy loyihasi deyiladi.(2- chizma).

GOST 21.501 - 80 ga asosan binoning balandligiga nisbatan 1q3 qismidan yoki poldan 1 metr balandlikda kesuvchi tekislik o'tkaziladi.


Planda nima tasvirlanishiga qarab bir necha turga bulinishi mumkin. Agar biz binodagi xonalar joylashishini ko'rsatmokchi bo'lsak, u holda asosiy va yordamchi devorlar, shuningdek eshik va derazalar o'rni, hamda ko'p qavatli binolar uchun zinapoya katagi ko'rsatiladi. Bu chizma qavat plani deb aytildi.

Ko'p qavatli binolar uchun, masalan, 1- qavatdan boshqasi bir xil bo'lsa, tipaviy qavat plani yoki 2-5 qavat plani deb ko'rsatish kifoya. Chizmada planni ustida "plan", "1- qavat plani" yoki "tipaviy qavat plani" deb belgilanadi. Agar formatdagi chizmalar bir xil masshtabda bo'lsa, asosiy yozuvda masshtab belgilanadi, aks holda "plan" yozuvidan keyin uning masshtabi yozib qo'yiladi.

Agar orayopma yoki ustyopma planini ko'rsatmoqchi bo'lsak, unda asosiy devorlar va plitalarning joylashuvi, markalari, monolit qilinadigan qismlari ko'rsatiladi. Shuningdek spetsifikatsiya tuzilib, plita to'g'risida to'liq ma'lumot beriladi, har qavatdagi markalari bo'yicha ularning soni keltiriladi.


Planda ustunlar o'rni, asosiy devor va zinapoyaning chiqish yo'lagi ko'rsatiladi. Ayniqsa, ular haqida etarli o'lchamlar bo'lishi kerak.

Odatda ko'rinxaymaydigan konstruktiv elementlar planda ko'rsatilmaydi. Agar boshqa chizmalarda shu elementni ko'rsatish iloji bo'lmasa, unda uni planda shtrix chiziq bilan ko'rsatiladi. Bunda tasvirlangan element kesuvchi tekislikdan pastda (isitish batareyalari) yoki yuqorida (antresollar) bo'lishi mumkin (41-chizma). Planda sanitary texnik jihozlar (vanna, unitaz, rakkovina va h.z.) plan masshtabida




2-chizma


1-qavat



3-chizma



4-chizma



5-chizma


chiziladi. 4-chizmada juda ko'p qo'llaniladigan sanitary texnik jihozlarning o'lchamlari berilgan.

Turar joy va lamoa binolarida mebel va boshqa jihozlarning joylashishi ham ko'rsatilishi mumkin.

Texnologik jihozlarni joylashtirish plani alohida berilishi mumkin. U holda plan konturi yordamchi chiziqlar bilan 0.2-0.3mm, jihozlar esa 0,6 mm qalinlikda chiziladi. Qurilish qismiga taaluqli to'liq o'lchamlar, grafik belgilar va yozuvlar planda ko'rsatilmasligi ham mumkin.

Sekciyali uylar katta uzunlikka ega va shuning uchun kichik masshtabda chiziladi va sekciya planlari chizmasi bilan to'ldiriladi (5- chizma). 6- chizmada T -1A, 2B, 2B seksiyalar ko'rsatilgan.

Planni quyidagi tartibda chizish tavsiya etiladi:



6-chizma

Avval koordinaciya birinchi bo'lib bo'ylama, so'ngra ko'ndalang o'qlar chiziladi. Son jihatdan ko'p holatlarda gorizontal yo'naliш arab sonlarida 1,2,3,4,... belgilanadi, ikkinchi yo'naliш esa rus alfaviti harflari A, B, V, .... va boshqalar qo'yiladi. Markirovka qilinadigan aylanachalar (diametri 6-12 mm) chapdan o'ngga va pastdan yuqoriga qarab joylashtiriladi (6-chizma).

Ingichka chiziq (0,3-0,4 mm qalinlik) yordamida bo'ylama va ko'ndalang, tashqi va ichki asosiy devorlar, hamda kolonnalar chiziladi. Ular koordinacion o'qlarga bog'lanadi.

### ***Yordamchi devor konturlari chiziladi.***

Eshik va deraza o'rirlari belgilanadi. Asosiy va yordamchi devor konturlari kerakli qalinlikda chiziladi.

Kolonna, yuk ko'taruvchi devorlar, yordamchi devorlarga nisbatan yo'g'onroq chiziladi. Zinapoya, sanitary texnik va boshqa jihozlarning shartli belgilari, shuningdek eshiklarning ochilish yo'naliши ko'rsatiladi.

Chiqish, o'lcham chiziqlari va markirovka aylanachalari chiziladi.

Kerakli o'lchamlar, o'q va boshqa elementlar markalari qo'yiladi. Plan gabaritida xona o'lchamlari, devor qalinligi va o'qlarga bog'lanishlar ko'rsatiladi.

Kerakli yozuvlar bajariladi. Qirquvchi tekislik belgilanadi. Qavat plani chizmasi, konstruktiv elementlar specifikasiyasi, xona eksplikasiyasi, xonalarni hoshiyalash vedomosti bilan birga bajariladi (7- chizma).

### **A) ESHIK DERAZALAR UCHUN QOLDIRILGAN TESHIK JADVALIMI TO’LDIRISH NAMUNASI**

<b>MARKASI, POZ.</b>	<b>TERILGAN G’ISHTDAGI TESHIK O’LCHAMI</b>
1	3600 x 3600
2	1510 x 2370
3	1010 x 2070
4	810 x 2070

### **B) XONANI SAYQALLASH JADVALI**

<b>Xona raqami</b>	<b>XONA NOMI</b>	<b>POLLAR</b>		<b>XONA SHIFTI</b>		<b>XONA DEVORLARI</b>	
		<b>Maydon <math>m^2</math></b>	<b>Sayqallash usuli</b>	<b>Maydon <math>m^2</math></b>	<b>Sayqallash usuli</b>	<b>Maydon <math>m^2</math></b>	<b>Sayqallash usuli</b>
1.	Yashaydigan xonalar	99,24	Taxta		Oqlash		Oboy yopishtirish
2.	Oshxona	19,80	Linoleum				PXV rangbo’yoq
3.	Cho’miladigan xona	7,70	Keramik		PXV rangbo’yoq		hq1,8 yoqori keramika
4.	Hojatxona	3,52	Keramik				PXV rangbo’yoq
5.	Kirish	14,40	Taxta		Oqlash		
6.	Ombor, xoll	7,72	Linoleum				
	Deraza va eshiklar	Ikki marta yog’li rang bo’yoq bilan bo’yash					

**A) XONALAR EKSPLIKASIYASI**

PLAN BO'YICHCHA RAQAM	NOMI	MAYDONI $m^2$	YONG'IN XAVFSIZLIGI BO'YICHCHA KATEGORIYASI

**B) XONALARNI CAYQALLASH JADVALI MAYDONI  $m^2$** 

NOMI YOKI XONA NOMERI	SHIFT	DEVORLAR		DEVOR PASTI		.....	IZOH

**V) ESHIK VA DARVOZALAR JADVALI**

MARKASI, POZISIYASI	TERILGAN G'ISHTDAGI TESHIK O'LCHAMLARI

**G) PEREMICHKALAR JADVALI**


MARKASI, POZISIYASI	KESIMLAR SXEMASI

### 1.3. Bino fasadi

Fasad bu binoning vertical tekislikdagi ortogonal proyeksiyasi - binoning tashqi ko'rinishi. Fasad chizmasi binoning arxitekturasi, tashqi ko'rinishi va alohida elementlarining nisbati haqida ma'lumot beradi. Fasadlar bosh, hovli va yon fasadlarga bo'linadi.

Binoning ko'chadan yoki maydondan ko'rinishi bosh fasad deyiladi. Proektda odatda hamma fasadlar ko'rsatiladi. Murakkab konfigurasiyaga ega bo'lgan bino fasadlari alohida chizmada ko'rsatilishi mumkin. Bir xil fasadlar uchun birta chizma chiziladi.

*Fasad 1-7*



9-chizma

Fasad nomi chekka koordinat o'qlari orqali aniqlanadi. Masalan: "Fasad 1-7", "Fasad A-4", "1-13 fasadning montaj sxemasi". Fasad nomi chizma ustida joylashtiriladi (9 - chizma).

Fasad masshtabi minimal kerak shu bilan birga devor rel'efi, devordagi teshik va derazalar ko'rinishi uchun etarli bo'lishi kerak. Imkon bo'lganda fasadda deformasyon yoriq, yong'in zinapoyasi, tashqi suv tushuvchi trubalar, eshik oldidagi panduslar va panjaralar ko'rsatilishi kerak. Shtrix chiziqda fasad boshqa materialda bo'lganda ajratib ko'rsatiladi.

Sanoat binolarining fasadlari uzun bo'lsa, unda ritmik joylashgan derazalarni faqat ikki chekkasidan uch-to'rttasini ko'rsatish kifoya qiladi. Umuman olganda fasad detallarini ko'rsatish fasad masshtabiga bog'liq. 1:100 mashtabda eshik va derazalarning tiplari chizib ko'rsatiladi, kichikroq mashtabda eshik va derazalar konturi chiziladi.

Agar fasadning murakkab qismlari bo'lsa, ular alohida kattaroq masshtabda ko'rsatiladi va fragment deb ataladi.

Fasad bino va inshootlarning chizamalari bosh plan bo'yicha chiziladi. Qurulish chizmalaridagi ko'rinishlar, qirqimlar va kesimlarni joylashuvi hamda ularning belgilanishi mashinasozlik chizmalaridagi ko'rinishlar qirqimlar va kesimlarning joylashuviga o'xshashdir. Ayrim hollarda inshootlarning ayrim xususiyatlarini hisobga olgan hollarda proyeksiyalarning joylashishi proeksiyon bog'liqliklardabn tashqarida qulay joyga yoki alohida farmatlarga chiziladi. Qurilish chizmachiligining xarakterli xususiyatlari shundaki ular eng ko'bi bilan 3ta ayrim hollarda 1ta yoki 2ta proeksiyada chiziladi bin ova inshootlarining tashqi ko'rinishlari frantal proeksiyalari teksligida chiziladigan chizmalar fasodlar deyiladi binonning profel proeksiya teksligidagi chap yon fasad deyiladi. Yirik blokli va yirik panelli binolarning fasad chizmalarida panellar yoki bloklarning ajralish chiziqlari ko'rsatiladi. Fasadlar eng chekka o'qlar bo'yicha nomlanadi. Masalan fasad 1-4.

Sanoat va fuqaro binolari quyidagi asosiy qismlardan iborat, poydevorlar, devor va parda devorlari yompala stropila tomlar deraza, eshiklar, zina va hokazolar. Binoning ayrim qismlarini ko'rib chiqamiz.

Poydevorlar. Poydevorlar binoning masuliyatli qisimlaridan biridir. Binoning butun og'irligini yerga uzatib uni taqsimlash uchun xizmat qiladigan binoning yer ostidagi qismi poydevor deyiladi.

Poydevorning ustki sirti uning satxi ostki sirti esa tagi diyiladi. Poydevor uchun ishlatiladigan asosiy materiallar, tosh , devor va tepaviy blok hamda temir bitondir poydevor kanstruksiyasi jixatidan quyidagilarga bo'linadi, 1) lentasimon uzluksiz poydevor –bino poydevorlari ostidagi va binolarning yuk ko'traruvcchi ostiga ishlatiladi.

2) Alovida turuvchi yoki ustun poydevor yumshoq tuproqli joyga quriladigan binolarda kolanna va ustunlar ostiga ishlatiladi.

3) Tutash poydevot – maxsus bino va inshotlar ostiga ishlatiladi.

Poydevorlarning qurilish- loyihalash qoidalari va normalariga asosan yer yuzasidan necha metr chuqur bo'lishi quyidagi asosiy talablarga bog'liq ) bino quriladigan joydagi yerninig muzlash qatlami qalinligi (masalan Toshkent, Tbilisi, Boku va Ashxabatlar yerning muzlash qalinligi 50 sm dan kam) 2) yer osti suvlarining past-balandligi. 3) zilzila sharoitlari.

Poydevor qalinligi devor qalinligidan odatda 5....10 sm ko'p bo'lishi kerak. Demak poydevor loyihasini tuzishda bino quriladigan uchastkaning gdrogiologiyasi o'rganiladi , poydevor shakli va o'lchamlari aniqlanadi. Unga ishlatiladigan materillar tanlanadi hamda 9 balldan ortiq zilzila bardosh berishligi hisobga olinadi.

Devorlar binolarning asosiy qismi devorlar hisoblanadi. Dimiy va vaqtincha nagruzkaldan hosil bo'ladigan bosim devorlar orqali poydevorga uzatiladi. G'isht devorlarining qalinligi g'ishlarning standart o'lchamlari (6.5x12x25sm) bilan aniqlanadi. Tashqi devor uchun 51sm yoki 64 sm (ikki yoki ikki yarim g'isht) har qanday devor uch qisimdan pastki qismi (sokol)o'rta va yuqori qismi (karniz) dan iborat. Devorning pastki yo'g'onlashgan qismi sokol deyiladi. Skol qismining qalinligi devor qalinligidan 6,5 ...12 sm ko'p bo'ladi. Uning balandligi odatda 1 – qavat polining yuzasi to'gri keladi. Devorlarda isitish asboblari dudburon va shamollatish kanallari quriladi. Bino ichidagi devorlar sanitariya va gigiena qoidalariغا muvofiq quyidagi talablarga javob berishi kerak. 1) devor tashqi tempiratura tasir bilan bino ichining isib yoki sovib ketishiga yetarli darajada qarshilik ko'rsata olish kerak. 2) Devorning ichki tomonida tegishli minimal temperature saqlanib turishi lozim.3) devorning yuqori karniz qismi uning umumiylasini ko'rakam kilishda katta rol o'ynaydi. Xamda devorning ustki qismini qor va yomg'irdan saqlaydi. Baland bo'limgan devorlardan karnizkar g'ishtning o'zidan chiqarib ishlanishi ko'p qavatli binolarda esa karniz devor sirtidan 1...1,5 m dacha oldinga chiqarishi mumkin.

Pollar. Polar binoning asosiy qismlaridan hisoblanadi. Polar turar joy binolarida uyning foydali yuzasini zavod va fabrikalarda esa ishlab chiqarish

yuzasini belgilaydi. Pollar asosan 3 elementdan iborat: a) pol zamini b) pol toshamasi v) pol sirti

Polning sirti taxta porket, biton ,siment, muziik va linolimlar kabi materiallar bo'lishi mumkin

Yopmalar.Yopmalar bino qavatini bir biridan ajratib turadi va chordoq yopmasi bo'ladi.

Padval yopmasi birinchi qavatni padvaldan ajratib turadi. Qavatlar aro yopma bino qavatlarini ajratib turadi. Binoning yuqori qavatini chordoq xonasidan ajratib turadigan yopma chordoq yopmasi deyiladi.

Chordoq yopmasi xam qavatlar aro yopma kabi bajariladi. U faqat polsiz bo'ladi. Yopmalar asosan biton , yog'och, asfalt, hamda yirik panellar yopma va boshqa materiallar asosida bajariladi.

Tom binoni yog'in – sochin xamda quyosh nurlarining tasiridan saqlab turadi. Bino tomlari ikki xil yani chordoqli va chordoqsiz bo'ladi. Chordoqli tom ko'pincha uy joy binolarida , chordoqsiz tom esa sanoat va korxona binolarida qo'llaniladi. Tomlar bir , ikki, to'rt, mishabli , gumbaz va ravoq shaklida bo'ladi. Tomlar tunika va asbestosment , tol, rubiroit va boshqalar bilan yopiladi. Binoning plandagi shakli oddiy va murakkab bo'lishi mumkin. Ikki qarama qarshi nishablarining qo'shilishidan xosil bo'lgan garizantal qirra konyok diyiladi. Ikki nishabning qo'shilishidan xosil bo'lib, konyokdan bino burchaklariga yo'nalgan qiralar , yani konyoklarni birlashtiruvchi qiralar tom qovurgasi diyiladi. Ikki nishab qo'shilishida hosil bo'ldan botiq qirra yonda va tomni ushlab turuvchi qismi esa stropilolar deyiladi. Strplilar siyanma va osma bo'ladi. Trgakli stropilolar tuzilishi jixatidan oddiy va ekspluatasiyada ishonchli bo'ladi, shuning uchun ular ko'p ishlatiladi. Binoning ichki devoir bo'limgan holda osma stropilolarini ishlatishga to'g'ri keladi. Tomning planini tuzishda har birini alovida turt burchaklikda ajratiladi. Avval katta tort burchaklik, so'ngra kichik to'rtburchaklik uchlaridan garizantal chiziqqa nisbattan 45 li chiziq chiqarib tomning plani tuziladi. Tom planning tuzilishi ko'rsatilgan. Tom plani tuzilgandan so'ng unga asoslanib stropilo – tomi ko'tarib turuvchi element bo'lib, ko'pincha yog'ochdan ishlanadi.

U bir ikki va to'rt nashabli tomlarni yopishga qo'llaniladi. Binoning eni 6 m gacha bo'lsa bir nishabli tom yopiladi.agar binoning eni 14 m gacha bo'lib unda ichki bo'ylama devor yoki to'rt nishabli qilib yopildi.Agar binoning eni 16 m gacha bo'lsa suyanma stropila oqrnatish uchun unig ichida ikki ichki bo'ylama devor yoki ikki qator ustun bo'lishi lozim.tomdan tushadigan kuchlanishning devorga teks taqsimlanishini ta'minlash uchun soyoqlari ostiga mauerlat qo'yiladi.Tomlar ikki va to'rt nishabli bo'lganda stropilalarning pastini oyoqlari mauerlatga, yuqoriga oyoqlari esa xariga o'rnatiladi.Xarilarning ostiga har 4...5 m da ustun va tirkaklar qo'yiladi.Stropilalar oralig'i 1...2 m bo'lishi mumkin.Osma stropila binoning eni keng va uning ichidagi tayanchlar oralig'i uzoq bo'lganda osma stropila osmasi termasi yoki temir biton to'sinlar ishlatiladi. Ostma stropila taxta yoki bryuslardan yasaladi.stropila farmalari esa yog'och ,metal va temirbitondan tayyorlanadi, ular katta o'lchamli binolar ( majlis kino – teatr zallari ) ni yopishda ishlatiladi.

Tom derazasi. Tomning o'lchami katta bo'lsa, chordoq xonasini yoritish ventilyasiya qilish va unga kirish uchun stropilo orasiga deraza o'rnatiladi. Tomga o'rnatilgan derazaning o'lchami 80 x 80 sm bo'lishi kerak.

Zinalar. Zinadan tushib chiqish xavfsiz bo'lishi uchun unga panjaralar o'rnatiladi. Zinalar yog'och, tosh, beton, temir – betondan tayyorlanadi. Hozirgi kunda zina marshi va supachalari zavodda yaxlit qilib ishlab chiqarilmoqda. Zinaning asosiy o'lchami marshning kengligidan iborat bo'lib, u norma bo'yicha binodan foydalanadigan kishilarning maksimal soniga qarab belgilanadi. Ammo normadan qat'iy nazar, marshlarning kengligi kamida zinalar uchun 1.2 m, ikkinchi darajali zinalar uchun 1.0 m, chordoq padval va tashqi zinalar uchun 0.75 m bo'lishi kerak. Zina supachasining kengligi va marshning kengligidan kam bo'lmaydi. Zina katagining o'lchamlarini aniqlash uchun qavat balandligi zinaning sxemasi va o'lchamlari bo'lishi kerak. Zina katagi tabiiy yorug'lik bilan yuritilishi lozim. Buning uchun binoning zina katagidagi tashqi devoriga deraza o'rnatiladi ba'zi binolarda zina katagini to'la yoritish uchun uning butun balandligi bo'ylab deraza o'rnatiladi. Bunday derazalarni erker deyiladi.

Pechkalar. Binolarni isitishning turli sistemalari bor. Bular rayon markaziy va mahalliy isitish. Isitishning rayon sistemasiga elektrosentral (TES), zavodlarning issiqlik energiyasidan foydalanib bug' yoki suv va gaz bilan isitish kerak. Markaziy isitishga binolarni umumiy qozonxonadan ta'minlanadigan suv bilan isitish kerak. Rayon va markaziy isitish asboblari odatdagি qurilish chizmalarida tasvirlanmaydi. Pechkalar bilan isistish mahalliy isitish hisoblanadi.

Pechkalar har xil formali bo'ladi. Kvadrat, to'g'ri burchakli, uchburchakli ko'rinishda va yumaloq. Plan chizmalarida pechkalar joylashuvining shartli belgilari ko'rsatiladi.

Eksplikasiya. Ayrim hollarda chizmani o'qish tushunarli bo'lishi uchun undagi xonalarning vazifasini ko'rsatish maqsadida nomi yozib qo'yiladi. Masalan: ustaxona, oshxona va boshqalar. Lekin ko'pincha yozuvlar o'rniiga nomerlar qo'yiladi. Shunday paytlarda chizmaga eksplikasiya joylashtiriladi. Eksplikasiyada birinchi nomer, so'ngra shu binoning nomi yoziladi. Masalan: 1-ustaxona

### **Qurilish chizmalarini o'qish**

Qurilish chizmalari ham yig'ish chizmalari kabi quyidagi tartibda qo'yiladi.

Chizmada tasvirlangan bino yoki inshootning nomi aniqlanadi.

Chizmada berilgan tasvirlar ( fasadlar, planlar, qirqimlar) belgilanadi.

Chizmada berilgan tasvir va eksplikasiyalar birgalikda tahlil qilinadi

Bino qismlarining bir – biriga nisbatan qanday joylashganligi ular o'rtasidagi bog'lanish va ularning tuzilishi o'rganiladi.

Hamma xonalardagi deraza, eshik sanitariya texnika jihozlari va boshqalarning qanday joylashganligi aniqlanadi.

#### **1.4. Grafik dasturlarda arxitektura qurilish chizmachiligi chizmalarini bajarish.**

Mamlakatimizda barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarning o'z ijodiy va intellektual salohiyatini amalga oshirish, o'sib kelaetgan yigit-qizlarni XXI asr talablariga to'liq javob beradigan, har tomonlama rivojlangan shahslar etib voyaga yetkazish bugungi kunning dolzarb mavzularidan biridir. Fanlarni o'qitilishida yangi pedagogik tehnologiyalarni, ahborot kommunikatsiyalari, elektron qo'llanmalar, multimedia vositalarini keng joriy etish orqali mamlakatimiz maktablarida, kasb-hunar kollejlari, litseylari va oliy o'quv yurtlarida o'qitish sifatini yahshilash, ta'lif muassasalarining o'quv-laboratoriya bazasini zamonaviy turdag'i o'quv va laboratoriya uskunalarini, kompyuter tehnikasi vositalari bilan ta'minlanish darajasi ortib bormoqda.

Zamonaviy ahborot va kompyuter tehnologiyalari asosida ta'lif muassasalarini o'quv jarayonlarini tashkil etish, ta'lif jarayonlarining sifat va samaradorligini keskin oshirishga olib keladi. Buning uchun Respublikamizdagi oliy ta'lif muassasalarida tehnik va tashkiliy imkoniyatlari yaratilgan va yildan-yilga yangilanib bormoqda. Ta'lif jarayonida mavjud elektron qo'llanmalar, plakatlar, stendlar, va boshqa turdag'i vositalardan foydalanish ko'rsatkichi zamon bilan hamnafas tarzda o'sib bormoqda.

Ayniqsa muhandislik grafikasi darslarida grafik dasturlardan foydalanish yanada talabalarni qiziqishiga asos bo'ladi. Hozirgi paytda kompyuter grafik dasturlaridan foydalanish imkoniyatlari juda keng. Kasb-hunar kollejlari va akademik litsey bitiruvchilari muhandislik grafikasi mutahasisligi darslari buyicha yetarli bilim va ko'nikmaga ega bo'lgan holda oliy ta'lif muassasasida tahlil olishni davom ettirishadi.

Samarqand shahrining 2750 yillik, Buxoro, Xiva va Termiz shaharlarining 2500 yillik, Shahrisabzning 2700 yillik, Toshkent shahrining 2200, Marg'ilon shahrining 2000 yillik yubileyлari nishonlandi. Buyuk sohibqiron va atoqli davlat arbobi Amir Temur, jahonga mashhur vatandoshlarimiz Alisher Navoiy, Abu

Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, al-Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Marg'inoniy, Imom al-Buxoriy, Bahouddin Naqshbandiy, Abduxoliq G'ijduvoniy, Najmuddin Kubro, Imom al-Moturdiy, Jaloliddin Manguberdi singari jahonga mashhur kishilarning qadamjolari mamlakatimizning bosh me'mori - davlatimiz Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimovning tashabbuslari va rahbarliklarida zamonamizdan kelajak avlodga meros bo'lib qoladigan darajada restavratsiya qilindi, tubdan qayta qurildi va yangidan tiklandi. 2007-yilda Islom madaniyatining poytaxti deb tan olingan Toshkent shahrida ulug'vor inshoot - Hazrati Imom masjidi bunyod etildi.

Zamonaviy materiallar va konstruksiyalar asosida, milliylikni o'zida jo etgan, umumiylit bilan uyg'unlashgan ko'plab turar-joy, jamoat hamda sanoat binolari va inshootiari qurildi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish yo'lida mamlakatimizda yuksak me'morchilik san'ati darajasida akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari, maktablar, sport inshootlari, zamonaviy tibbiyot rnuassasalari, yangicha qishloqlar yaratildi. Ko'plab maydonlar, bog'-rog'lar, oromgohlar xalqqa ifrom etildi. Zamonaviy ishlab chiqarish korxonalari, zavodlar, fabrikalar ishga tushdi. Neft va gaz, gidrotexnika, energetika inshootlari, yangi yo'nalishdagi avtomobil yo'llari, temir yo'llar, ko'priklar, estakadalar va ko'plab boshqa turdag'i inshootlar bunyod etilib, foydalanishga topshirildi.

Yurtboshimiz tarixsiz kelajak yo'qligini, vatandoshimiz Abdulla Qodiriy ta'biri bilan aytganda, moziyga qaytib ish ko'rmoq kerakligini e'tiborga olib talaba yoshlarga - bo'lajak quruvchi muxandislarga me'morchilik, shaharsozlik va qurilish tarixini, ularning sir-asrorlarini o'rgatish maqsadga muvofiqdir. Ushbu darslik ana shu maqsadni ko'ziab yaratilgan bo'lib, yoshlarimizga me'morchilik sirlarini o'rgatishga qaratilgandir.

Me'morchilikning vazifasi inson hayoti va faoliyati uchun munosib fazoviy muhitni tashkil qilishdir. Bu vazifa moddiy struktura - qurilayotgan va ta'mirlanayotgan binolar va inshootiar orqali hal etiladi. Arxitekturaning ijtimoiy va g'oyaviy rivojlanish jarayonida uning funksiyasi binolar, konstruksiyalar orqali turlicha ifodalanadi. Konstruksiyalar va arxitekturaviy - badiiy ifodalar o'rtaсидаги

o'zaro bog'liqlik me'morchilik rivojlanishining muhim muammosi bo'lib kelgan. Konstruksiya aniq funksional va estetik masalalarga mos holda qo'llanilganligi uchun arxitekturaviy asar elementi ahamiyatiga ega bo'lган. Konstruktiv shaklning proporsional, hajm-fazoviy va plastik ifodalanishi bino va inshootlar tektonikasining xususiyatlarini tashkil etadi va bu arxitekturaviy kompozitsiyaning bir muhim vositasidir.

Me'morchilik fani hamma vaqt ijtimoiy, siyosiy va g'oyaviy omillarni hisobga olgan, ularga mos holda rivojlangan. Muhandis quruvchilar arxitekturaning, asosan texnik masalalari bilan ish ko'rib, konstruksiyalar va qurilish usullarini o'ziga jo etgan estetik imkoniyatlarini yaqqol tasavvur qilishlari kerak bo'ladi. Bu jihatdan qaraganda, arxitektura tarixiy tajribasi nafaqat keng malumotlar beradi, shuningdek, u muammoni nazariy o'ylashga o'rgatadi, konstruksiyalar va badiiy shakllarning o'zaro bog'liqligiga oid ko'p qirrali nazariy masalalarni hal qilishga yordam beradi.



10-chizma

Shu kabi inshootlar yaratish uchun esa quyidagi; 3DS MAX, MM flash, GIF animator, ArchiCAD, AutoCAD, Kompas, Photoshop, Corel DROW va Xara kabi dasturlar ishlab chiqilgan. Bu dasturlardan foydalanish bugunki kun yoshlaridan katta masuliyat, kuchli bilim va sabr talab qiladi. Maktab 8-9 sinf chizmachilik darslari chizma chizish qoidalari, chizmachilik atamalari va h.k.lar haqida tushuncha berilib o'tiladi. Oliy o'quv yurtlarida esa maktab, kollejlarda olgan bilimlarga tayanib, chizmachilik fanining keyingi bosqichdagi bilimlar beriladi. Bunda talabalar geometrik jism yoki biror bir binoning 2 proektsiyasi va yaqqol tasvirini chizishni, detal 2 proektsiyasiga qarab yaqqol tasvirlarni tasavvur qila olishlari, fazoviy tasovvurlarini shakllantirib borishlari kerak. Chizmachilik darslarida zamonaviy ahborot tehnologiyalaridan foydalanib yuqorida aytib o'tilgan sifatlarimizni tezroq va aniqroq erishishimiz mumkin. Bu boradagi ishlarimizni “AutoCAD-2007” grafik dasturi orqali ko'rib chiqamiz. [ ]

Shuni ta'kidlab o'tish joizki ushbu grafik dastur orqali berilgan o'lchamlar orqali geometrik jism yoki mashinasozlik detallarini yaqqol tasvirini tayyorlasa ham bo'ladi.

Dastlabki ishimizni oddiy qogozda bajargandek berilgan uskunalar orqali tayyorlab olamiz. Agarda chizadigan detalimizni uch o'lchamli holatidagi modelini yaratish zarur bo'lsa, yaqqol tasvirlar va umuman uch o'lchovli fazoda ishslash zarurati bo'lsa, bunda “AutoCAD - 2007 ” dasturidan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

AutoCAD dasturida chizma chizish uchun, dastlab dasturni yuklab olamiz. Tushuvchi menyular satridan “Fayl”- menyusini ochamiz va qo'shimcha oynadan “Sohranit”-“Hotiraga saqlash” buyrug'ini tanlaymiz. (*Tanlash- kompyuter sichqonchasining chap tomon tugmasini bir marta yoki “Enter” tugmasi bir marta bosiladi* “Panel enstrumentov” - “Uskunalar paneli”dan foydalanib chizma chizish bosqichlarini ketma-ketlik bilan bajarib, detal proektsiyalarini chizamiz.

Hozirgi zamon kompyuterlari va ularning dasturlar ta'minoti, grafik ahborotlarni bemalol uch o'lchamda ham loyihalash imkoniyatini beradi. Buning

uchun qator grafik dasturlar mayjud bo'lib, ular orasida AutoCAD dasturi muhandislik va arhitektura qurilish chizmachiligi uchun berilgan o'lchamlar asosida ikki va uch o'lchamli loyihalash ishlarini mukammal aniqlikda bajarish imkoniyatini beradi. AutoCAD-2007 tizimi "Autodesk" kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib loyihalash jarayonidan ko'p sonli foydalanuvchilar uchun qulay holda ishlatishlari ko'zda tutilgan. Hozirgi davrda AutoCADning dasturiy ta'minoti kompaniyani eng yahshi mahsuloti bo'lib, shahsiy kompyuterlarning eng keng tarqalgan avtomatik loyihalash tizimi paketi hisoblanadi.

AutoCAD dasturi orqali kompyuterda uch o'lchamli loyihalash ishlari ikki o'lchamli loyihalashga nisbatan birmuncha murakkabroq bo'lishi bilan birga quyidagi afzallikkarga ega:


- ob'ektlarning yuzalarini tabiiy ranglarga bo'yash;
- ob'ekt yuzalarini o'zaro kesishuvini avtomatik bajarish;
- ob'ektlarni asosiy va qo'shimcha ko'rinishlarga o'tkazib, o'zaro vaziyatlarini o'zgartirish;
- ob'ektlarga tushuvchi nurlarni yo'naltirish va soyalarini hosil qilish;
- ob'ektlarning to'rtdan biriga yoki teng yarmiga qirqim berish;
- bajarilgan uch o'lchamli bo'yalgan ob'ektlarni tahlil qilib ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan talablarda ishlov berish;
- tayyorlangan uch o'lchamli ob'ektga animatsiyalar qo'llash;
- yasalgan uch o'lchamli model-buyumni fazoni istalgan nuqtasiga o'rnatish, koordinata o'qlariga qiymatlar kiritib o'zgartirib ko'rish.



11-rasm


AutoCAD dasturida ikki o'lchamlidan uch o'lchamli loyihalash "3D karkas"ga o'tish uchun 1-rasm, "Vizualno'e stili"dagи 2- tugma yuklanadi. Undagi 1 tugmani yuklash bilan ikki o'lchamli loyihalash "2D karkas" ga qaytiladi.

AutoCADda ob'ektlar va ularning elementlari bo'lgan sirtlar karkas ko'pyoqlik (11-rasm, 3 - tugma yordamida), yoki tekis yuzali qattiq jism ko'rinishida (11-rasm, 4, 5 -tugmalar yordamida) tasvirlanishi mumkin. Bunday qattiq jismlarni va ularning birikmalaridan iborat bo'lgan ob'ektlarni loyihalashda ikki o'lchamli asosiy ko'rinishlardan va uch o'lchamli izometrik tasvirlardan foydalilanadi.



12-rasm.

Shu sababli uch o'lchamli loyihalashda bunday ko'rinishlar bitta **Vid-** (ko'rinishlar) paneliga joylashtirilgan (12-rasm). 1–Nomlangan ko'rinishlar (**Poimenovanno'e Vido'**); 2 q 7 – 6 ta standart ustdan, tagdan, chapdan, o'ngdan, olddan va orqadan asosiy ortogonal ko'rinishlar; 8 q 11 – 4 ta standart izometrik ko'rinishlar; 12 – Kamera (**Kamera**) – ko'rish yo'nalishini kamera va ko'rish nuqtalari yordamida belgilaydi.



13- rasm.

Ko'rinishni o'zgartirishning boshqa bir imkonni bu **ORBITA 3D** buyrug'i yordamida amalga oshiriladi va uch o'lchamli fazo quyidagilarga bo'linadi. "**Ogronichennaya orbita**"- chegaralangan fazo (13.1), "**Svobodnaya orbita**"- ihtiyyoriy fazo (13.2), "**Neprero'vnaya orbita**"- uzluksiz fazo (13.3). Bu buyruq chaqirilganda, ekranda orbitali o'zgartirishlarni amalga oshirish mumkin. Kursorni uning kvadratlari bilan bog'lab, sichqonchani chap tugmasi yordamida surilsa, ko'rish yo'nalishini o'zgartirib, ob'ektni ko'rinas tomonlarini ham kuzatish mumkin.

Hozirgi zamonda muhandislik grafikasi fani o'qituvchilari mana shunday grafik tizimlarini bilishlari talab etiladi.

Hulosa qilib shuni aytish mumkinki ta'lim jarayonida o'qituvchi grafik dastur orqali darsni tashkil etsa talabalarning olgan bilimlari mustahkamlanib malakalari oshib boradi. Bunda talabalarning:

- birinchidan dars jarayoniga qiziqishlari ortadi;
- ikkinchidan olingan bilim, ko'nikma va malakalari shakllanadi;
- uchinchidan ularning fazoviy tessavvurlari kengayadi;
- to'rtinchidan ish samaradorligi va ijodiy fikrlashlari ortadi.


Hozirgi kunga kelib talabalarni zamonaviy metodlardan foydalanib o'qitish orqali yetarli darajada bilim berish va ularni zamon talabidagi mutahassislar qilib tayyorlash oldimizdagи eng katta maqsadimizdir. Grafik dasturlarda binolarni chizish bir munch oson va xilma xilllik ko'p 14-chizma. Bilimlarni o'zlashtirish jarayonida sezgi, idrok, tasavvur, tafakkur kabi psihik jarayonlar faol ishtirok etadi va amaliyotda sinab ko'rildi.

Bilimlar turli yo'l vositalari orqali puhta o'zlashtirilgandagina, u to'laligicha esda qoladi, bu esa o'quv materiallarni ongli o'zlashtirishga, nazariya bilan amaliyotni bog'lashga, ko'rsatmalikka amal qilishga va bilimlarni takrorlash orqali mustahkamlashga bog'liq bo'lib, oddiydan murakkabga qarab shakllantiriladi.

Shuni ishonch bilan aytish mumkinki, bu usulda darslar tashkil etilganda talabalarning berilgan grafik ishlarni tez va oson o'zlashtirishlari kuzatildi. [ ]

Qurilish chizmachiligidagi o'rgatishda kompyuterdan ya'ni yangi texnologiyalarni qo'llagan holda fanni tez sifatlari qiziqarli va aniq o'rganish maqsadida kompyuter programmlari ya'ni "AutoCAD", "3D - MAX", "CINEMA" lardan unumli qo'llanilgan holda qurilish chizmachiligi o'rganish mumkin.

AutoCAD – programmasidan foydalanishdan maqsad loyihalarni aniq o'lchamli va chizilgan chizmani xohlagan yerini o'zgartirish va ancha vaqt ni tejash va bir qancha loyihalarni o'z xotirasida saqlashi, rangli va rangsiz chizmalar ni yaratish mumkinligi bilan ajralib turadi. Qolaversa zamonaviy texnologiyalardan foydalanib zamon talabi asosida loyihalar yaratish mumkin bo'ladi. 3D- MAX-programmasi ancha mushkul programma bo'lishiga qaramay qurilish chizmachiligidagi foydalanish mumkin. Jismlarni yaratish va ularni harakatlantirib maketlar yaratib programma orqali uyning ichiga kirib har bitta xonani eshikgini ochib ko'rish imkoniyatini beradi va loyihani videorolik tarzida ko'rish mumkin bo'ladi. Yana bulardan tashqari darsda vidioproyektlardan foydalanib katta ekrandagi tasvirni ko'p sonli auditoriyaga ko'rsatib qiziqarli aniq va zamonaviy dars o'tish mumkin. Zamonaviy kompyuterlardan foydalanib dars o'tishning ustunligi eng muhim rol o'ynaydi.



14-chizma

## I I BOB. ELEKTRON O'QUV QO'LLANMA TAYYORLASHGA QO'YILGAN UMUMIY TALABLAR

### 2.1. Elektron o'quv qo'llanma va darsliklar yaratilishi tarixi va uning inson faoliyatidagi ahamiyati.

*Elektron o'quv qo'llanma (electron kitoblar)* - bu qog'ozsiz, muqovasiz va yelimsiz bo'lgan kitob turidir. Ularni qo'lida ushlab bo'lmaydi, shu sababdan kitob javonlarida chang bosib yotganini ham, varaqlari sarg'ayib, yaroqsiz holga kelib qolishini ham ko'rmaysiz. Ularni o'tda kuydirib, suvga cho'ktirib bo'lmaydi. Bu kitoblarni ishlab chiqarish uchun o'rmonlarni qirqishning, bir joydan boshqa joyga ko'chirish uchun transport xarajatlarining hojati yo'q. Bu kitoblarni o'qish uchun ma'lum elektron vositalargina kerak bo'ladi: kompyuterlar, smartfonlar yoki elektron kitoblarni o'qish uchun ishlab chiqariladigan maxsus riderlar.

#### *Tarixdan lavhalar*

Dastlabki elektron kitoblar "Gutenberg Loyihasi" (Project Gutenberg) doirasida paydo bo'lgan. Loyiha amerikalik Maykl Hart tomonidan 1971 yilda boshlangan bo'lib, o'shanda u birinchi bo'lib Amerika Qo'shma Shtatlarining Mustaqillik Deklaratsiyasining elektron nusxasini yaratgan edi. Bu dastlabki elektron kitob Project Gutenbergning keyingi yo'nalishini belgilab berdi. Kompyuter hali yangi bir voqelik, faqatgina olimlar qo'lidagi texnologiya bo'lib turgan bir vaqtda Maykl Hart ularning bir kunmas bir kun kelib, hammaning imkoniyetadigan darajadagi asbob bo'lib qo'lishiga ko'zi yetgan edi. Janob Hart o'z elektron kolleksiyasiga qo'yib borgan elektron kitoblarning o'ziga xos belgisi shundaki, ular oddiy matn (.txt va boshlalar) shaklida bo'lib, har qanday platformada ishlaydigan kompyuterlar uchun mo'ljallangan va mualliflik huquqi bilan himoyalanmagan, erkin foydalanishdagi asarlar joylashtirib boriladi. Hozirda dunyo bo'y lab juda ko'plab ko'ngillilar elektron kutubxonani o'z kuchlari bilan rivojlantirib boradilar.

Elektron kitoblar noshirlik ishining e'tiborini faqatgina XXI asrning boshlarida jalb qila boshladi. Bu esa, bu davrga kelib shaxsiy kompyuterlarning ommaviylashib bo'lgani hamda kitoblarni raqamlashtirish va tarqatish bo'yicha

Project Gutenberg kabi notijorat loyihalarning muvaffaqiyati muhim rol o'ynadi. Albatta, nashriyotlar bu jarayondan chetda qolishi mumkin emas edi, chunki kitoblar savdosida yangi bozor shakllanib boshlagan edi. Aynan elektron kitoblarni "nashr" qilishga ixtisoslashgan yangi tijorat kompaniyalari paydo bo'ldi. Nafaqat yakka foydalanuvchilar, balki, o'z kitobxonlariningtalablarini qondirish maqsadida, kutubxonalar ham o'z jamg'armalarini elektron kitoblar hisobiga to'ldirmoq harakatiga tushdilar.

Insoniyat o'z umri davomida imkon qadar ko'p axborotlarni kichik xajmga joylashga xarakat qilgan. Avval papirusga yozilgan kitoblar paydo bo'ldi, so'ngra pergamentdan foydalanildi. Keyinchalik (1456 yil, Gutenberg) kitob bosish davri keldi. Bugun biz kitoblarning eng so'nggi avlodi - elektron kitoblar to'g'risida gapirmoqdamiz.

Elektron kitob yaratish g'oyasi ko'p vaqtidan beri mutaxassislarni qiziqtirib kelgan. Elektron kitob yaratish tarixi 1945 yildan boshlanadi. Bu paytda futurist Vanavar Bo'sh tomonidan "kitoblarni, yozuvlarni va xabarlarni saqlash, ishlov berish, uzatish" imkonini beruvchi xususiy qurilmalar yaratish xaqida fikrlar bildirilgan edi. Elektron nashriyot ishi rivojining keyingi bosqichi 1968 yilga to'g'ri keladi. Ted Nelson tomonidan "gipertekst" ning yaratilishi, ya'ni World WideWebasining yaratilishi ayni paytda matnlarni Internetda saqlashning va xozirgi paytda yaratilayotgan elektron kitoblarning bosh formatining yaratilishiga asos bo'ldi.

1968 yil talaba Alan Kay tomonidan kitob vazifalarini bajaruvchi Dyna Book portativ interaktiv kompyuter loyixasi ishlab chiqildi. Yigirma yildan keyingina ushbu loyixa tijoratda amalga oshirildi. 1971 yildan boshlab Illinois Benedictine College tashabbusi bilanbugungi kundaeng ko'p elektron formatli kitoblarni o'z ichiga olgan Project Gutenberg loyixasi amalga oshaboshladi. 1981 yilda bizga ma'lum bo'lgan Ted Nilson "Xanadu" guruxini tashkil qiladi va elektron kitoblar bilan savdo qilishni rejalashtiradi. 1982 yilda Onlayn rejimida ishlovchi FSFnet birinchi elektron jurnal paydo bo'ldi. Unda badiiy asarlar - qisqa fantastik xikoyalar bosildi. Shunday qilib, 1998 yili bir paytning o'zida ikkita

qurilma-tom ma'nodagi elektron kitob sotuvga chiqarildi. Bular "Soft Book Reader" va "Rockete Book" lardir.

### ***Riderlar bozori***

Rider (inglizchadan, e-reader - "elektron o'qish moslamasi") yoki bukriderlar (book reader - "kitob o'qish moslamasi") ning dunyo bozoridan o'z joyini topa olganiga ham hali ko'p bo'lgan emas. Ma'lumki, kitob o'qishda kompyuterdan foydalanishning o'ziga yarasha qiyinchiliklari bor: ko'z achishishi va quruqshab borishi, bel og'rig'i, bosh og'rig'i va hokazo. Bunda hozirda kompyuterlarning monitorlarini ishlab chiqarishda qo'llanib kelinadigan TFT va LCD texnologiyalarini sababdir: bu kabilar, oddiy qog'ozdagi matndan farqli ravishda, ko'zni tez charchatadi. Cho'ntak kompyuterlarida ham shu muammo borligiga qo'shimcha ravishda, ularning narxi o'ta qimmat - deyarli kompyuter narxiga tenglashar edi. Oddiy qo'l telefonlari va smartfonlarda ham ekranchalari, birinchidmaan TFT va shunga o'xhash displaylarga ega va ular hajmi kichikligi uchun kitob mutolaasi uchun noqulaylik tug'dirardi. Shunday bir sharoitda, 1990-yillarning oxirlarida va XXI asr boshlarida yangicha bir texnologiyaga ehtiyoj tug'ildi va bu texnologiyaning rivojlanishi 1997 yilga borib taqaladi. Shu yili Massachusetts Texnologiyalar Instituti qoshida E-Ink Corporation tashkil qilinib, oddiy qog'ozda chop etilgan matn ko'rinishini iloji boricha takrorlaydigan elektron siyoh texnologiyasini va shu texnologiyaga asoslangan displaylarni ishlab chiqarish bo'yicha izlanishlar boshlab yuborildi. Va natijada, 2004 yilning aprelida Sony kompaniyasi o'zining birinchi mahsulotini taqdim qildi. Bir vaqtning o'zida bitta rosmana kitob sahifasini ko'rsatib turuvchi bu moslama tezda omma e'tiborini o'iga tortdi. Chunki bu oq-qora displayli, bir roman kattaligidagidagi moslama uzoq vaqt davomida mutolaa qilish maqsadlari uchun juda soz edi. Uning xotirasiga yuzlab emas, balki minglab kitoblarni kiritib, yoningizda hamisha olib yurishingiz va istagan mahal hamda istagan joyingizdan jahon adabiyoti durdonalaridan bahramand bo'lishingiz imkoniyati berilgan edi.

Hozirda AQShda eng ko'p tarqalgan riderlar Amazon Kindle, Nook, Sony Reader kabilar hisoblanadi. Mamlakatda 2009 yilning o'zida turli kompaniyalar

tomonidan 4 million riderlar sotilgan. Bu paytda ularning o'rtacha narxi 200-250 dollar bo'lib (vaqt o'tgan sayin ishlab chiqarish takomillashib va narxlar tushib bormoqda), asosan ular texnikaga o'ch kishilar va talabalar ko'proq tarqalgan. Riderlarning modellari turli elektron kitob formatlari biilan ishlashda bir-biridan farq qiladi.

Masalan,.epub.pdb.arg.awz.djvu.html.lbr.lit.mobi.opf.pdf.pdg.tr3.txt.xeb.mp 3 kabi eng ko'p tarqalgan 16 ta formatlar bo'lib, Amazon Kindle shulardan 12 tasi bilan ishlaydi (shu jumladan.mp3 bilan). iREx Technologies kompaniyasining iLiad rideri esa shu sanab o'tilgan formatlardan.epub.mobi.pdf.txt lar bilan ishlashi mumkin (va sanab o'tilmagan boshqalari bilan, ehtimol). Shuni eslatib o'tish kerakki,.epub - elektron kitoblarning universal formati bo'lib, deyarli barcha riderlar ularni o'qishga moslashtirilgan. Bundan tashqari, Rossiyada FB2 formati keng tarqalgan. Foydalanuvchilar riderlarni xarid qilishda ularning.pdf formatini qo'llab-quvvatlashiga tobora ko'proq e'tibor qilyaptilar.

Dunyodagi eng yirik elektron kitoblar do'koni bo'lgan Amazon o'zining nusxa ko'chrishdan himoyalangan AZW formatidan foydalangan foydalanib keladi.

Elektron kitoblarni qayerdan sotib olish mumkin?

Amazon.Com veb-saytida turli til va janrdagi kitoblarni sotib olish mumkin. Ularning narxi standartlashtirilgan bo'lib, 9.99 AQSh dollarini tashkil qiladi. Buning uchun Visa yoki Master Card credit kartalari kerak bo'ladi.

Barnes&Noble, Borders kabi yirik kitob do'konlari tarmoqlari ham elektron kitoblar bozoriga kirib kelganiga bir necha yil bo'lib qoldi. Mashhur Apple kompaniyasi shu yilning nart oyida o'zining iPad planshetini e'lon qilishi bilan bir qatorda, onlayn kitoblar do'konini ham ishga tushirgani ma'lum.

Rossiyada ham bir necha elektron kitoblar do'konlari mavjud. Ulardan eng yiriklari «LitRes» va «Aymobilko» (30 ming nomdag'i nashrlarga ega) hisoblanadi. «Knigafond» va "Bookmate" kabi pullik elektron kutubxonalar ham mavjud. Bundan tashqari, mashhur Ozon.Ru kitob savdosi shirkatining saytida ham elektron kitoblarni xarid qilish imkoniyati bor.

Insoniyatning butun xayoti davomida darslik kabi yosh avlodga bilimlarni ketma-ket yetkazuvchi qulay vosita yaratilmagan. Darsliklar bizning davrimizda ham qanchalik kompyuterli, audiovizual va boshqa yangi o'qitish vositalari rivojlanib borayotganligiga qaramasdan o'z ahamiyatini xali yo'qotgan emas.

Turli xil an'anaviy o'quv qo'llanmalari ichida darslik o'zining ahamiyatiga ko'ra alohida o'rinni egallaydi. Chunki u eng samarali hamda eng ko'p tarkalgan pedagogik model, hamda o'rganish vositasidan iborat bo'lgan va bundan keyin ham shunday bo'lib koladi. Shuning uchun Kadrlar tayyorlash milliy dasturi talablarini amalga oshirishda hamda yosh avlodni eng yuqori saviyada tayyorlashni ta'minlash uchun milliy sifatli bo'lgan darsliklarni nashr etish davlat ahamiyatiga ega bo'lgan masaladir. Sifatli darslik nafaqat o'rganuvchilarning motivastiyasini oshiradi balki yetarlicha tayyorgarlikka ega bo'lmanan o'qituvchilarning kamchiliklarini ham bartaraf qiladi. Boshqacha aytganda hatto o'quvchilarni sifatli darslik bilan o'qitayotgan oddiy o'qituvchi ham yaxshi o'qituvchiga aylanishi mumkin. Ya'ni: ham yaxshi o'qish ham yaxshi o'zlashtirish darslik bilan chambarchas bog'liqdir.

Sifatli darsliklar yaratishda muallif alohida o'rinni tutadi.

Muallifning qo'lyozmasi hali darslik emas. U faqatgina nashriyotda muharrining rahbarligi ostida jamoa bilan ijodiy ishslash jarayonida to'ldirilgan, takomillashtirilgan taqdirdagina haqiqiy darslik- kitobga aylanishi mumkin.

Ta'limni isloh qilish shunday ED yaratishni talab qiladiki, ularning mavjud bo'lishi talabalar va o'qituvchilar uchun, auditoriya va uy sharoitida bir xil bo'lган kompyuterli muxitni ta'minlashni takazo etadi. Xozirgi davrda ayrim fanlardan zamon talabiga mos darsliklarning yaratilmaganligi albatta achinarli holdir.

Barcha oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini yuqori saviyada tashkil qilish uchun davlat ta'lim standartlari hamda xalqaro ta'lim standartlariga to'liq javob bera oladigan o'quv adabiyotlari bilan ta'minlash masalasi dolzarb muammo hisoblanadi.

Bugungi kunda o'quv jarayonida foydalanish uchun tavsiya etilgan o'quv hamda elektron o'quv adabiyotlarning tahlili yaxshi yulga quyilmagan.

Milliy istiklol g'oyasiga sodik, yetarli intelektual salohiyatga ega, ilm-fanning zamonaviy yutuqlari asosida mustaqil fikr va mushoxada yurita oladigan shaxslarni tarbiyalash hamda raqobatbardosh, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash masalasi o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratishni talab kilmokda. Mafkuraviy hamda mazmun va mohiyati jixatdan eskirgan, to'liq an'anaviy (bosma) usulda nashr etilayotgan darsliklarning ma'lum qismi yangi ta'lim tizimining talab va ehtiyojlariga javob berolmay qoldi.

O'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish, ularni tayyorlash borasidagi ilmiy-uslubiy, tashkiliy (shu jumladan lotin alifbosiga o'tish) va moliyaviy masalalarni hal qilish, uzluksiz ta'lim tizimida Kadrlar tayyorlash milliy dasturi maqsadlariga erishishni ta'minlashga karatilgan choralar ni ishlab chiqishni talab qiladi.

Shu maqsadda Kadrlar tayyorlash milliy modeli talablariga muvofiq hamda yangi Davlat ta'lim standartlari asosida ishlab chiqilgan «Uzluksiz ta'lim tizimi uchun o'quv adabiyotlarini yangi avlodini yaratish konstepsiyasi»ning asosiy vazifasi qilib o'quv adabiyotlarining yaratish uchun ilmiy-g'oyaviy, uslubiy-didaktik, psixologik-pedagogik, sanitariya-gigienik talablarni ishlab chiqish, elektron qo'llanmalardan to'g'ri va ratsional foydalanish maqsadida ularning mavjud shakllari va turlariga aniq ta'riflar berish hamda mamlakatimiz mikyosida zamonaviy elektron qo'llanmalar tayyorlash bo'yicha strategik masalalar kulamini aniqlash belgilangan.

### ***Elektron qo'llanmalarning farqli xususiyatlari va afzalliklari***

Mamlakatimiz o'quv yurtlariga kirib kelayotgan zamonaviy kompyuterlar asosida o'quv yurtlarini axborotlashtirishga intilish jarayoni ta'limda elektron qo'llanmalar uchun yo'l ochib beradi.

Klassik tushunchada darslik bu talabalar uchun kitob bo'lib, unda bilimlarning ma'lum sohasidagi o'quv materiali fan va madaniyatning zamonaviy yutuqlari darajasida tizimli bayon qilinadi. Demak, elektron qo'llanma ham, bosma darslik ham umumiy belgilarga ega va aynan:

o'quv materiali bilimlarning ma'lum sohasi bo'yicha bayon qilinadi;

o'quv materiali fan, texnika, texnologiya va madaniyatning zamonaviy yutuqlari darajasida yoritiladi;

o'quv materiali darsliklarda tizimli bayon qilinadi, ya'ni darslikning butunligini ta'minlaydigan, ma'noli munosabat va alokali, ko'plab elementlardan tashkil topgan butun tugallangan asarni o'zida tasvirlaydi.

Bosma darsliklar mavjudligi tufayli ba'zi o'qituvchilar elektron qo'llanma atamasini ishlatishni xush ko'rmaydilar degan fikrlar ham bor. Bu mualliflar «Elektron nashr» atamasini tavsiya qiladilar. Lekin «nashriyot» so'zi bosma mahsulotni ishlab chiqarish nazarda tutadi. Ma'lum tushunchalarni o'z ichiga oladigan yangi atamalarni ishlatish davr taqozosidir. Xayot o'zgarishi bilan birga texnologiyalar ham o'zgaradi. Barcha o'zgarishlarga tushunish bilan yondashish kerak.

Elektron qo'llanmaning bosma darslikdan farqli belgilari bizning nazarimizda quydagilardan iborat:

Har bir bosma darslik talabalarni tayyorlashning ma'lum boshlangich darajasiga mo'ljallangan va o'qitishning yakuniy darajasini tavsiflaydi. Ko'plab umumta'lim fanlari bo'yicha odatdagi (tayanch), murakkabligi yuqori, mahsus va boshqa fanlar darsliklari mavjud. Aniq bir o'quv fani bo'yicha elektron qo'llanma murakkablikning bir necha darajasidagi materialni o'z tarkibida saqlashi mumkin. Bunda ular har bir daraja uchun interfaol tartibotda bilimlarni tekshirish uchun ko'p variantli topshiriqlarni o'z tarkibiga saklagan bo'ladi.

Elektron qo'llanmada ko'rgazmalilik bosma darslikdagidan ko'ra yuqoriroq. Elektron qo'llanmalarda ko'rgazmalilik, ularni yaratishda animasiyalar, tovush kuzatishlar, giperjunatishlar, videolavxalar va boshqalar kabi multimediyali texnologiyalardan foydalanish bilan ham ta'minlanadi.

Elektron qo'llanma sinov topshiriqlari va testlarining ko'p variantliligi, ko'pdarajaliligi va xilma-xilligini ta'minlaydi. Elektron qo'llanma barcha topshiriq va testlarni interfaol va ta'lim beruvchiga tartibli berilishga imkoniyat yaratadi.

Noaniq javob paytida tushuntirishlar va izoxlar orqali aniq javob berishga erishish mumkin.

Elektron qo'llanmani yaratish va tarqatishda bosmaxona ishlari bajarilmaydi. Elektron qo'llanmalar o'zining tuzilishi bo'yicha ochik tizim bo'lib hisoblanadi. Ularni ishlatish jarayonida to'ldirish, takomillashtirish mumkin.

Elektron qo'llanmaning ta'lim oluvchilar bilan yakinlashuvi bosma ko'rinishdagi darsliklardan ko'ra yuqorirok. Elektron qo'llanmaka talab oshganda uning adadini osongina oshirish mumkin, tarmok bo'yicha junatish mumkin.

Foydalanishda va ishlab chiqish maqsadlariga bog'liq ravishda ko'p funkstiyaliligini ta'minlash uchun elektron qo'llanmalar turli xildagi tuzilmalarga ega bo'lishi mumkin. Masalan, darslarda foydalanish uchun aniq bir fan bo'yicha o'quv dasturiga mos keladigan elektron qo'llanmani yaratish va o'quv materiallini mavjud mavzuviy rejalshtirish asosida berish mumkin. Elektron qo'llanmalarni mavzuviy rejalshtirishga boglamasdan, balki shunchaki konkret ta'lim bosqichi bo'yicha o'quv rejasiga rioya qilib ishlab chiqish mumkin.

Bizning fikrimizga ko'ra elektron qo'llanmalar quyidagi xususiyatlarga ega :

- urganilayotgan materialni an'anaviy o'quv adabiyotlariga nisbatan induktiv yondashish, eshiktish va emostional xotiralarga ta'sir qilish yullari bilan materialni yetkazish orqali tushunishni yengillashtiradi;
- talabalarning ehtiyojiga, tayyorgarlik darajasiga, intellektual imkoniyatlariga moslashtirilgan;
- o'quv predmetining mohiyatiga diqqatni jalb etgan holda ko'p sondagi ma'lumotlarni va topshiriqlarni qarab chiqish va ko'proq amaliy masalalar yechishga imkon yaratgan holda murakkab hisoblashlar va almashtirishlardan holos etadi;
- o'rganishning barcha bosqichlarida o'zini-o'zi tekshirib ko'rish uchun keng imkoniyatlar yaratadi;
- ishni chiroyli va aniq rasmiylashtirishlarga va uni o'qituvchiga fayl yoki qog'ozga chop etgan holda topshirishiga imkon beradi;

-tajribali o'qituvchi vazifasini cheklanmagan tushuntirishlarni, sanoqsiz takrorlashlarni, eslatishlarni, taqdim etgan holda bajaradi.

Elektron qo'llanma ixtisoslashgan o'quv xonalarida o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi qulay imkoniyatlarni yaratadi.

kompyuterli qo'llab quvvatlashlardan foydalangan holda katta miqdordagi topshiriqlarni bajarishga, yechimlarni va ularning grafik talqinini tahlil qilish uchun zarur bo'lgan vaqtdan ozod bo'ladi.

o'qituvchining rahbarlik va maslahatchi sifatida qatnashib kompyuter oldida mustaqil ish shaklida mashg'ulot o'tkazish imkonini beradi.

o'qituvchiga kompyuter yordamida talabalar bilimini tez va samarali nazoratdan o'tkazishiga imkon beradi.

